
QALQON

6 (333) 2026
IYUN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI JURNALI
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
JOURNAL OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ЩИТ • SHIELD



USHBU SONDA





2 KO‘NGLINGDA HIMMATING BO‘LSIN!

6 ПУХТА СТРАТЕГИЯГА АСОСЛАНГАН ИСЛОҲОТЛАР

10 BOLA HUQUQLARI – OLIY QADRIYAT

15 OTASINI KUTAYOTGAN BOLA...

16 РИВОЖЛАНИШГА БЎЛГАН ҲУҚУҚНИНГ ЯНГИ ТАЛҚИНИ

20 QOQILGANNI SUYASH KERAK

22 YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI

24 USTOMONLARDAN USTAROQ EKSPERTLAR

26 ДЕЙСТВЕННЫЙ МЕХАНИЗМ: «СТОЛИЧНЫЙ ОПЫТ» ПРОФИЛАКТИКИ В МАХАЛЛЕ БОТИРМА

29 CHILDREN’S RIGHTS – A SUPREME VALUE

Muqovaning birinchi betida: *Toshkent shahar IIBB JXX JTSB Kinologiya xizmati kichik inspektori, safdor Fazliddin Abdullayev o‘ziga biriktirilgan «Marsel» laqabli xizmat iti bilan.*



30 OQ «TOPILMA»NING QORA OQIBATLARI

31 TAQDIRNING TADBIRI

32 BUTUN SHAHAR KAFTDEK NAMOYON

34 ХАВФСИЗЛИК ВА МАСЪУЛИЯТ УЙҒУНЛИГИ

36 БАРАКАЛИ ИЖОДКОР

38 КУЛОЛЛАР АВЛОДИДАН ЧИҚҚАН ОФИЦЕР

40 FALOKAT OYOQ OSTIDA(MI)?

42 BIZ EKKAN NIHOLLAR

44 «XORIJDA ISH BOR»

48 SOYABON

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy-huquqiy jurnali

QALQON-ЩИТ-SHIELD

2026-yil 6 (333)-son
1998-yil sentabr oyidan chiqa boshlagan

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Bosh muharrir, podpolkovnik
Xurshidbek RO‘ZIYEV

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV,
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Erkin SATTOROV

Nashr uchun mas’ul
Bobomurod TOSHEV

Sahifalovchi
Muxiddin SOLIYEV

Navbatchilar
Adolat FAYZIYEVA,
Yuliya MUSTAFAYEVA
Tuzatuvchi
Umida SAPAROVA
Fotomuxbirlar
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2018-yil 10-avgustda 0125-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda «Qalqon-Щит-Shield»dan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Jurnal IIV Birlashgan tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Bosishga ruxsat etildi
2026-yil 20-iyun
Formati 60x84 1/8. 6 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Buyurtma № 831
Nashr adadi 13 963
ISSN 2010-5347

«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Mas’ul Akmal MURATOV
Toshkent sh. Mirobod tumani, Qo‘shko‘prik ko‘chasi, 28/1-uy.
Indekslar: yakka tartibdagilar uchun – 970
tashkilotlar uchun – 1083.

Manzilimiz: 100070,
Toshkent shahri Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Telefonlar:
71-231-33-88,
71-231-41-66.



KO‘NGLINGDA HIMMATING BO‘LSIN!





Farmon TOSHEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.

Mustaqilligimizga 35 yil bo‘lyapti! To‘g‘ri, bu tarix uchun qisqa muddat. Lekin o‘tgan yillar xalqimiz uchun chinakam sinov davri bo‘ldi. Davlatning xalqaro munosabatlari hali o‘rnatilmaganligi, sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan boshqa respublikalar bilan iqtisodiy aloqalar zanjirining uzilib qolishi, tabiiyki, oldimizga juda ko‘p muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ular imkoni boricha bartaraf etildi. Ha, xatolar ham bo‘ldi, ammo mamlakatimizning tinchlik-osoyishtaligini ko‘z qorachig‘idek asraganimiz, milliy o‘zligimizga tayanganimiz tufayli barcha mashaqqatlarni yorug‘ yuz bilan yengib o‘tdik.



Yaratganning inoyatiga shukur, ming bora shukur! ammo, bu shukronam bizga shunisiyam bo‘laveradi, deganim emas! Chunki faqat erishgan yutuqlari bilan g‘ururlanib, olg‘a intilmagan xalq, millat, mamlakat rivojlanishdan to‘xtaydi. Imkoniyatlar uchun ham emas, chunki ular ilgari ham bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi. Imkoniyat barcha davlatda, barcha millatda bo‘ladi. Kamina ikki tuzumni ko‘rgan ziyoli sifatida xalqimizda ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanishga ishtiyoq, hafsala va qat’iyat paydo bo‘lganiga shukur qilaman!

Misol uchun, so‘nggi yillarda ota-onalar o‘rtasida farzandiga diplom olib berish emas, balki ilm olishga qiziqtirish, malakali mutaxassis bo‘lishiga ko‘maklashish harakati ko‘zga tashlanyapti. Yoshlarning aksariyati xorijiy tillarni o‘rganishni boshladi. Ularning ko‘pchiligi tabiiy va aniq fanlar yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishni ma’qul ko‘rmoqdalar. Minglab yigit-qizlar o‘rta maktabni bitirish barobarida, bira to‘la qator xorijiy davlatlar oliy o‘quv yurtlari talabasi bo‘lishyapti. Bu holat ham ana shu shukronamiz tufayli o‘zgargan nuqtayi nazarimiz samarasi emasmi?

Hayotimizga ilg‘or texnologiyalar jadallik bilan kirib kelmoqda. Faqat biz ko‘pincha kundalik hayotimizdagi ushbu jarayon bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tahlil qilishga fursat topmayapmiz yoki qunt qilmayapmiz, nazarimda. Masalan, radarlar va zamonaviy nazorat tizimlari tufayli xavfsizlik kamari taqishni o‘rgandik, yo‘l harakati qoidalariga rioya etyapmiz, kerakli joydan belgilangan tezlikda o‘tamiz.

Bitta uy-joy hujjati, turli to‘lovlar uchun nechta eshikka sarg‘ayganimiz yodingizdami? Endi-chi? Hammasini internet orqali bajarishni o‘rgandik. Chunki davlat xizmatlari bizga shunday imkon yaratyapti. Yoki bank plastik kartasidagi pulimizni qancha foiz hisobiga naqd qilganimizni bir eslang.

Avtoulovga pul to‘lab, mashinani olish uchun bir yil kutganimizni aytmaysizmi? Endi, marhamat, yirik shaharlardagi deyarli har ko‘chada bitta avtosalon. Unga kirib, xohlagan mashinangizni tanlab oling. Uni o‘sha yerning o‘zida nomingizga rasmiylashtirib berishadi. Bunga o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q. Demak, biz endi o‘z haq-huquqimizni anglab yetyapmiz. Shuurimiz evrilyapti.

Hayotimizdagi yana bir ijobiy o‘zgarish haqida gapirish zarurga o‘xshaydi. Bu – saviyamizning dunyo bilan bo‘ylashayotgani. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston olamga darvozasini keng ochdi. O‘qishga, malaka oshirishga, ishlashga, sayohatga juda ko‘plab xorijiy davlatlarga emin-erkin borib kelyapmiz. Va yetti iqlimdan bizning yurtimizga ham kelishyapti. Tabiiyki, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar aholisidan ko‘p yaxshi jihatlarni o‘rgandik. Ularday yashashni istaymiz. Bunday istaklar allaqachon amalga oshib, turmush tarzimizga singib ulgurdi. Tanlab yeydigan, tanlab kiyadigan bo‘ldik. Buning uchun ham shukrona aytsak arziydi.

Binobarin, ichki ishlar organlari faoliyati to‘g‘risidagi tasavvurimiz ham o‘zgargani rost. Chunki ilgari bu tizimga yigitlar deyarli pinhona ishga o‘tishardi, bu jarayondan xabarimiz yo‘q edi. Endi esa ko‘z o‘ngimizda harbiy xizmatni o‘tagan, jismonan baquvvat, axloq-odobli, bilimli, dunyoqarashi keng farzandlarimiz barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgach, huquq-tartibot posbonlari safidan o‘rin olmoqda.

Profilaktika inspektorlari kecha-yu kunduz mahallalarda ish yurityapti. Tizim rahbarlari bevosita qishloqlarda, mahallalarda aholi bilan yuzma-yuz muloqotlar o‘tkazmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ichki ishlar organlari tubdan takomillashib, xalqchil qiyofa kasb etmoqda.

Darvoqe, soha xodimlarining turli ma’naviy, ma’rifiy, hatto ijodiy tanlovlarda ishtirok etishi, g‘olib bo‘layotgani bu tizimdagi ijtimoiy muhit darajasi yuqoriligini ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashining tashkil etilishi va unda tizim faoliyati bilan bog‘liq muhim masalalarning oshkora muhokama etilishi aholining bu tizimga bo‘lgan ishonchini oshirayotganligi ham bor gap.

Globallashuv jarayonida dunyodan hammamiz boxabarmiz. Uning notinchligi ham, tabiiyki, yuragimizga g‘ulg‘ula soladi. Chunki uzoq qit’adagi notinchlik ham, albatta, Yer kurrasining barcha mintaqalariga ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, olam ichra biz ibrat oladigan, orzu qiladigan, havas qiladigan mutlaq ideal davlatning o‘zi qolmadi. Noshukur-u landovur, ishyoqmasu tekinxo‘r, mushtumzo‘r-u muttaham istagan mintaqangizda topiladi. Albatta, o‘zimizda ham. Ammo…

Xalqimiz 35 yil davomida juda katta sinovlardan o‘tish barobarida arzigulik tajriba ham to‘pladi. Allomalarimiz aytganidek, ko‘nglida himmati bo‘lgan, o‘z tuprog‘ini suygan, o‘zini qadrlagan kishigina jamiyatda munosib o‘rnini topa oladi. Zero, bunday fazilat insonning o‘zigagina emas, jamiyatga ham naf keltiradi.

Biz bugun ana shunday xislatlarimizni namoyish etishimiz, farzandlarimizni ham Vatanini ulug‘lashga, el-yurtining sha’ni uchun fidoyilik ko‘rsatishga chorlamog‘imiz lozim. Dunyo hamjamiyatida mustahkam o‘rin egallayotgan, qudrati yuksalayotgan jonajon O‘zbekistonimizga ko‘z tegmasin.

XXI асрнинг биринчи чорагида дунёнинг сиё-сий-ижтимоий лугатида «Янги Ўзбекистон» тушун-часи мустаҳкам ўрин эгал-лади. Бу тарихий воқелик мамлакатимизнинг та-раққиёт стратегияси, кўп қутбли прагматик ташқи сиёсати халқаро ҳамжами-ятнинг ҳурмати ва эъти-рофига муяссар бўлганли-гини англатади.



Шавкатбек МАМАДАЛИЕВ,
фалсафа фанлари доктори, профессор, истеъфодаги полковник

ПУХТА СТРАТЕГИЯГА АСОСЛАНГАН ИСЛОҲОТЛАР

Ушбу тушунчанинг инглиз, рус, хитой, немис, француз, испан ва бошқа тилларда жаранглаётгани юртимизнинг ҳар бир фуқаросига ғурур ва ифтихор бағишлайди. Шак-шубҳасиз, Янги Ўзбекистон фикрда, сўзда ва амалда мавжуд бўлган ўзига хос янги феномендир. Шу сабаб, мазкур тушунчанинг мазмун-моҳиятини англаш мамлакатимизнинг ҳар бир фуқароси, айниқса, халқчил ички ишлар органлари ходимлари учун долзарб аҳамият касб этади.

Хўш, Янги Ўзбекистоннинг моҳиятини нима ташкил этади? Унинг асосини Янги Ўзбекистон ғояси, стратегияси ва халқимизнинг ишончи ташкил этади, десак назарий жиҳатдан тўғри бўлади. Инсоният тарихидан маълумки, ғоясиз, стратегиясиз ва халқ ишончисиз амалга оширилган ислоҳотлар нафақат кичик ёки ўрта давлатлар, балки буюк империяларнинг емирилишига сабаб бўлган.

Шуни алоҳида айтиш жоизки, Янги Ўзбекистон шароитида пухта ўйланган ғоя, тараққиёт стратегияси ва халқ ишончига асосланган ислоҳотлар ўзининг ижобий натижасини бера бошлади. Хусусан республикамизда 2017 йилдан буён ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг ўсиши 5-7 фоиздан кам бўлмаётгани фикримизнинг холислигидан далолат беради.

Янги Ўзбекистоннинг асосий ғояси – тинчлик, халқ фаровонлиги ва



тараққиётдир. Бу ғояларнинг мазмун-моҳияти Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг асарларида ўз ифодасини топган. Давлат раҳбарининг асарларини синчиклаб ўқиган шахс халқимизнинг орзуси тинчлик, фаровон ҳаёт, ривожланиш эканлигига ишонч ҳосил қилади. Гегомонизм, шовинизм, радикализм, экстремизм, сепаратизм, терроризм, миссионерлик ва прозелитизм каби бузғунчи ғояларга қарши муросасиз курашиш кераклигини англайди.

Бундан кўринадики, ҳеч бир нарса қандай номланишидан қатъи назар, тинчликка таҳдид солмаслиги керак. Бугун демократия, инсон ҳуқуқлари, сўз эркинлигини таъминлаш байроқлари остида урушлар олиб борилаётгани, қон тўкилаётгани, қуролланиш жараёни авж олаётгани, ядро урушининг хавфи ортиб бораётгани ҳеч кимга сир эмас. Шу сабаб, ҳар биримиз амалий фаолиятимизда «оила – маҳалла – туман – вилоят – Республика» кесимида тинчлик-осойишталик учун курашиб яшашга одатланишимиз керак. Бу масалада бефарқлик, лоқайдлик ва кузатувчанликка йўл қўймаслигимиз лозим.

«Ўзбекистон – 2030» стратегияси 2017–2021 йилларда ижроси таъминланган Ҳаракатлар стратегияси ҳамда 2022 – 2026 йилларда амалга оширилиши белгиланган Тараққиёт стратегиясининг мантиқий давомидир. Амалдаги стратегияда тинчлик, халқ фаровонлиги ва тараққиётга эришишнинг механизмлари, яқин ва узоқ муддатда амага оширилиши лозим бўлган вазифалар аниқ белгилаб берилган.

Демак, стратегия мавҳум ғоя эмас, балки амалий ҳаракат учун қўлланмадир. У догма ҳам эмас, аксинча, такомиллаштирилиб, амалиёт билан ўзгариб борадиган расмий ҳужжатдир. Бу жараён «Ўзбекистон – 2030» стратегиясидан кейин ҳам янги стратегиялар қабул қилинишини англатади. Чунки Янги Ўзбекистон – янги ислоҳотлар ва янги имкониятлар мамлакатидир.

Янги Ўзбекистон ғояси ва стратегияси-

да жамоат хавфсизлигини таъминлаш ҳамда жиноятчиликка қарши курашиш муҳим ўрин тутади. Бу борада ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтаришга ҳам алоҳида аҳамият қаратилган. Ушбу тизимни халқчил тузилмага айлантириш орқали замонавий ва самарали ички ишлар органларини шакллантириш ғояси илгари сурилган.

Ушбу эзгу ғоя «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги қонунда, соҳага оид фармон, қарор ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда ўз аксини топган. Уларнинг ижросини таъминлаш орқали, амалиётга жорий этилаётганлиги натижасида Янги Ўзбекистонга мос мутлақо янги ички ишлар органлари яратилмоқда дейишга ҳақлимиз. Буни қуйидаги жараёнларда кўриш мумкин:



● *тизимда фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига риоя этилаётгани, очиқлик, шаффофлик ва ҳисобдорлик вужудга келганлиги;*

● *жиноят ва жазо фалсафасининг тубдан ўзгарганлиги, яъни соҳада жазолашга эмас, қайта тарбиялашга, жиноятнинг оқибатига эмас, унинг сабабини аниқлаш ва профилактикасига, қонун ва адолат устувор, жиноятга жазо муқаррар принципига устуворлик берилаётганлиги;*

● *ҳар бир маҳалла, оила ва шахс кесимида жиноятчиликнинг сабаблари аниқланиб, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишга оид муммолар жойларнинг ўзида бартараф этилаётгани;*

● *ҳудудларда жиноятчилик аҳволидан келиб чиқиб, ҳар бир туман, шаҳар ва маҳаллаларни тоифаларга ажратиш орқали ҳокимликлар ва жамоатчилик билан ҳамкорликда жиноятларнинг олди олинаётганлиги;*

● *жойларда маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканларининг ташкил этилиши;*


● *ички ишлар органлари учун профессионал кадрлар тайёрлашнинг сифат жиҳатдан янги тизими жорий этилганлиги.*


Шак-шубҳасиз, янги ички ишлар органлари муҳим ижтимоий воқеликдир. Бу эса ички ишлар органлари ходимларидан янгича фикрлаш ва ишлашни талаб этмоқда. Янгича фикрлаш ва ишлаш дейилганда, юрт манфаатлари асосида фикрлаш, қонун ва ахлоқ дои-

расида фаолият юритиш англанади.

Хитой файласуфи Конфуций: «Сиёсат ўзгариши учун 10 йил, тизим ўзгариши учун 30 йил, онг ўзгариши учун 60 йил керак бўлади», деган эди. Дарҳақиқат, инсон онгини ўзгартириш энг қийин ва нозик масаладир. Ички ишлар органларининг айрим ходимлари томонидан содир этилаётган жиноятлар, фуқаролар билан мулоқотда йўл қўйилаётган камчиликлар, қасамёдига зид равишда шахсий манфаатларини давлат ва халқ манфаатларидан устун қўйиш ҳолатлари халқчил янги ички ишлар органлари имижига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Шу сабаб тизимда ички ишлар органлари ходимлари томонидан содир этилган қонунбузарликлар фавқулодда ҳолат сифатида баҳоланиб, уларни бартараф этиш чора-тадбирлари кўрилмоқда. Шахсий таркибнинг ватанпарварлик туйғуларини кучайтириш, муомала одоби ва касб маданиятини тизимли равишда юксалтиришга оид ҳужжатлар қабул қилинган, маънавият ва маърифат дарслари ўтказиляпти, ватанпарварлик бурчаклари ташкил этилган.





Тизимдаги таълим муассасаларида маънавият асослари, касбий маданият, ватанпарварлик тарбияси, ички ишлар органлари ходимларининг муомала одоби каби фанларни ўқитилиши йўлга қўйилди. Жойларда ҳар ҳафтада «Ватанпарварлик куни» ўтказилмоқда. Ушбу тадбирлардан кўзланган бош мақсад – халқ ишончини қозониш, ички ишлар органлари жазоловчи эмас, балки халқ хизматидаги идора эканлигини амалда намоён этиш. Ҳа, бугунги кунда Янги Ўзбекистонга мос ва хос бўлган, ходимлари Ватан ва халқ манфаатларига садоқат билан хизмат қилишни ўзининг олий бурчи деб биладиган янги ички ишлар органлари фаолият олиб бормоқда.



BOLA HUQUQLARI – OLIY QADRIYAT

Mamlakatimizda amalga osirilayotgan izchil islohotlarning markazida inson qadri va uning manfaatlarini ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston aholisining qariyb uchdan bir qismini bolalar tashkil etishini inobatga olsak, yosh avlodning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani tabiiydir.

Xo‘sh, bugun jamiyatda bolalarni zo‘ravonlik va mehnat ekspluatatsiyasidan himoya qilish borasida qanday amaliy choralar ko‘rilmoqda? Oila va ta’lim muassasalaridagi mavjud muammolar qanday hal etilyapti?

Shu mavzuda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) Surayyo RAHMONOVA bilan suhbatlashdik.

– Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilgani haqida xabarlar tez-tez kuzatilmoqda. Aytingchi, ushbu holatlar yuzasidan qanday choralar ko‘rilmoqda?

– Bolaga nisbatan zo‘ravonlik – jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi xavfli ijtimoiy hodisadir.

Shu o‘rinda aytish joizki, bolani zo‘ravonlikdan himoya qilish yuzasidan boshqa yo‘nalishlarga qaraganda eng ko‘p murojaatlar kelib tushmoqda. Ularni ko‘rib chiqish natijasida bolalarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik holatlari yuzasidan 2025-yilda 19 ta jinoyat hamda 26 ta ma’muriy ish qo‘zg‘atildi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi 20 ta qaror bekor qilinib, tergovga qadar qo‘shimcha tekshiruv olib borish uchun yuborildi.

2025-yilda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish yuzasidan kelib tushgan jami murojaatlarning 34 foizi ta’lim muassasalaridagi (shundan 28,9 foizi pedagoglar tomonidan sodir etilgan) zo‘ravonlik holatlari-



ga tegishli ekanligi juda tashvishlidir. Chunki maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablar bola shaxsi shakllanishida oiladan keyingi eng muhim tayanch makon hisoblanadi. Aynan shu yerda bola tengdoshlari bilan ilk bor muloqotga kirishib, jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini egallaydi. Shu bois, ta’lim maskanidagi muhit bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga faqat ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim. Shuning uchun ham bolalar uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish, sohada faoliyat yuritayotgan pedagog va tarbiyachilarning bu boradagi malakasini oshirish birlamchi vazifadir.

Aytish kerakki, amaldagi qonunchilikda ta’lim muassasalarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik masalalari nazarda tutilgan bo‘lsa-da, bolaga zo‘ravonlik qilgan pedagog yoki tarbiyachining kelgusida ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishini cheklovchi normalar yo‘q edi. Shu bois, bu borada tegishli qonun loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, ta’lim va tarbiya jarayonida voyaga yetmagan bolaga nisbatan zo‘ravonlik sodir etganlik uchun alohida ma’muriy javobgarlik nazarda tutilmoqda. Shuningdek, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgani uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar bir yil muddat davomida maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emasligi belgilanmoqda. Hozirda mazkur qonun hujjati Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan.

– O‘zbekiston bolalar mehnatiga chek qo‘yishda katta yutuqlarga erishdi. Biroq maishiy sharoitda yoki norasmiy sektorda bolalar mehnatidan foydalanish holatlarini qanday nazorat qilish mumkin?

– Darhaqiqat, O‘zbekistonda bolalar mehnati to‘liq bartaraf etilgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak olqishlandi. AQSH Mehnat vazirligining Bolalar mehnatini yo‘q qilish bo‘yicha yillik hisobotida dunyodagi 131 mamlakat ichidan faqatgina 4 ta davlat qatorida O‘zbekiston ushbu sohada eng yuqori sezilarli natijaga erishgan davlat maqomiga ega bo‘ldi.



Qayd etish joizki, 2025-yilda bolalar mehnatiga oid o‘tkazilgan o‘rganishlar ota-onalarda va ta’lim muassasalari xodimlarida bolalar mehnati, xususan, bola sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hali ham yetarli emasligini ko‘rsatdi. Jumladan, ayrim ta’lim muassasalarida bolalar hududni tozalash va og‘ir buyumlarni tashish kabi ishlarga jalb etilgan. Biroq bunday ishlarni bajarish, og‘ir yuk ko‘tarish yoki issiq ob-havoda soyasiz joyda ishlash bola sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligiga e’tibor qaratilmagan.

Bu borada yana bir jihatga to‘xtalmoqchiman. Ichki ishlar vazirligi va Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birgalikda hududlarda bolalarni tilanchilikka jalb qilish kabi salbiy holatlarni tizimli ravishda o‘rganib kelmoqdamiz. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bolani bunday g‘ayriijtimoiy faoliyatga jalb qilgan ayrim ota-onalar tilanchilikni o‘ziga kasb qilib olgan, ba’zilari esa oilaviy sharoiti og‘irligi yoki ishsizligi sababli shu yo‘lga kirgan. Eng tashvishlisi, tilanchilikka jalb qilingan bolalarning aksariyati majburiy umumiy o‘rta ta’limdan chetda qolib ketgan. Bunga yo‘l qo‘ygan ota-onalarga nisbatan qonuniy javobgarlik choralari ko‘rildi.

Bolalarning kelgusida qayta tilanchilikka jalb etilishining oldini olish maqsadida «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari ushbu oilalarning har biri bilan manzilli ishlab, ularning ijtimoiy yordamga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganmoqda. Og‘ir ahvolga tushib qolgan oilalar monitoring qilinib, ularga zarur ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilmoqda eng muhimi, bolalarning ta’lim olish huquqi tiklanmoqda.

– Qanday oilalarda va qanday muhitda bola huquqlari ko‘proq buzilyapti?

– 2025-yilda Bola huquqlari bo‘yicha vakil nomiga 1934 ta murojaat kelib tushdi. Bu ko‘rsatkichni 2024-yil bilan solishtirganda murojaatlar salmog‘i 84 foizga oshganini ko‘ramiz. Bu, o‘z navbatida, jamiyatimizda bola huquqlari borasida aholining xabardorligi va Bolalar ombudsmani institutiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Endi ushbu murojaatlar tahliliga kelsak, bolani zo‘ravonlikdan himoya qilish,



uning moddiy ta’minoti va oilaviy muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash masalalari ustuvor ekanligi ko‘rinadi.

2025-yil davomida kelgan murojaatlarning deyarli 7 foizi aynan bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqiga tegishli bo‘lib, ularning aksariyati ota-onasi ajrashgan bolalarning yashash joyini belgilash va bola bilan ko‘rishish nizolariga oiddir. Achinarlisi, ko‘p hollarda oilaviy nizolashayotgan ota-onalar bolaga g‘amxo‘rlik qilish mas’uliyatini unutib, o‘zaro shaxsiy adovat va alamzadalikka tayanib harakat qilishadi. Bunday vaziyatda esa eng katta zarbani baribir bola yeydi. Ota va ona o‘z zimmasidagi majburiyatni to‘g‘ri anglab, o‘zaro nizolarni bola manfaatlariga zarar yetkazmasdan hal etish yo‘llarini izlashlari kerak.

Shuningdek, bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi qay darajada ta’minlanganini tahlil qilganimizda, ayrim hollarda bolaga o‘z fikrini aytishga imkon berilmasligi kuzatildi. Bolalar o‘rtasida muntazam o‘tkazib kelinayotgan ijtimoiy so‘rovlarimiz bu borada qaysi nuqtalarga e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatmoqda. Xususan, «U-Report» loyihasi doirasidagi so‘rovnomada bolalarning atigi 27 foizi hech qanday to‘siqlarsiz o‘z fikrini ifoda eta olishini ma’lum qilgan. 25 foizi kattalar ularni jiddiy qabul qilmasligini, 16 foizi jazolanish yoki tanqid qilinishdan qo‘rqib fikrini aytmasligini, 9 foizi esa oilaviy va ijtimoiy qadriyatlar bunga yo‘l qo‘ymasligini bildirgan. Vaholanki, bolaning shaxsiy fikri – uning ustuvor manfaatlarini aniqlashda birinchi navbatda inobatga olinishi lozim bo‘lgan mezondir.

– Bola huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni O‘zbekiston sharoitida joriy etish jarayonlari haqida ham to‘xtalsangiz.

– O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyekti sifatida xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin ratifikatsiya qilgan ilk xalqaro hujjat sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Yurtimiz ushbu Konvensiyadagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan holda, bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni izchil rivojlantirib

kelmoqda.

BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) tomonidan O‘zbekistondagi bolalar va o‘smirlar holati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida davlat siyosati va qonunchilikda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yurtimiz bola huquqlarini himoya qilishda salmoqli yutuqlarga erishgani qayd etilgan. Xususan, Bolalar ombudsmani institutining tashkil etilishi ham xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish yo‘lidagi ulkan qadamdir.

BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi 2022-yildagi yakuniy tavsiyalarida O‘zbekistonga bolalar ahvoliga oid tizimli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni yanada kuchaytirishni tavsiya etgan edi. Shundan kelib chiqib, biz yurtimizda bolalar vaziyatini aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash va natijalarini keng jamoatchilikka e’lon qilib borish maqsadida «Bolalar farovonligi» milliy indeksini joriy etishni taklif qilmoqdamiz.

Ushbu milliy indeks bola huquqlarini ta’minlashga oid islohotlar samaradorligini doimiy baholash, bolalar farovonligiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

Xalqaro standartlarga ko‘ra, bola hayotiga oid har qanday qarorda uning ustuvor manfaatlari birinchi o‘rinda turishi shart. Ko‘plab rivojlangan davlatlarda ota-ona mas’uliyati xalqaro huquqda «parental responsibility» yoki «parental authority» tushunchalari bilan belgilanadi. Bu yondashuv ota-onaning bolani nafaqat moddiy ta’minlashi, balki uni zo‘ravonlikdan asrashi, xavfsiz muhit yaratishi va psixologik qo‘llab-quvvatlashini majburiyat sifatida yuklaydi. Mana shunday xalqaro yondashuvlarni milliy tajribamizga to‘liq singdirish ustida ishlayapmiz.

– Faoliyatingizdagi eng qiyin va, aksincha, eng quvonarli lahzalar...

– Bolalar ombudsmani mustaqil organ sifatida juda murakkab keyslar bilan ishlaydi. Eng qiyin lahzalar – bu bolaga begonalar emas, balki uning eng yaqin insonlari, ota-onasi tomonidan zarar yetkazilishi, bolaning ular o‘rtasidagi nizolar qurboniga aylanishidir.

O‘tgan yil davomida xorijiy hamkasblarimiz bilan hamkorlikda chet ellarda nazoratsiz va og‘ir ijtimoiy vaziyatda qolgan 45 nafar o‘zbekistonlik bolani Vatanga, yaqinlari bag‘riga qaytarishga muvaffaq bo‘ldik. Bunday natijalar yurtimizdagi har bir bola davlat va jamiyatning e’tiborida hamda himoyasida ekanligini amalda isbotlaydi.

– Bolalar ombudsmanining kelgusidagi rejalari haqida ham to‘xtalsangiz?

– Oldimizda keng ko‘lamli va istiqbolli vazifalar turibdi. Kelgusida asosiy e’tiborni davlat organlarining bola huquqlarini ta’minlash borasidagi mas’uliyatini yanada oshirishga qaratmoqchimiz. Chunki oila va jamiyatdan farqli o‘laroq, davlat organlari o‘z funksional vazifalari yuzasidan bunga bevosita javobgardir.

Bundan tashqari, odil sudlov tizimida bolalar ishtiroki va imkoniyatlarini ta’minlash, raqamli tahdidlar – global internet makonida bolalar xavfsizligini himoya qilish eng dolzarb rejalarimizdan. Bolalar uchun muqobil milliy axborot platformalarini yaratish va ularning raqamli savodxonligini oshirish yo‘nalishida tizimli ishlarni davom ettiramiz.

Eng muhimi, bolalar uchun farovon va xavfsiz hayot yaratish faqatgina davlatning emas, balki butun jamiyatning, har bir fuqaroning burchidir. Zero, ertamiz egalarining porloq kelajagi yo‘lida barchamizning harakatlarimiz mushtarak bo‘lishi zarur.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Gulnoza TURG‘UNBOEVA suhbatlashdi.



OTASINI KUTAYOTGAN BOLA...

Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, hatto ichki ishlar organlari xodimlarining ham yuragi o‘rtanadi, ko‘zlari yoshlanadi. Lekin buni o‘zgalardan pinhon tutishga harakat qilishadi. Xorazm viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni inspektori, safdor Muhayyo Kurambayeva ham 12 yillik faoliyati davomida ko‘p bora ana shunday holatlarga tushgan.

O‘shanda Urganch xalqaro aeroportida xizmat qilardi. Bir kuni aeroportning yo‘lovchilar uchun mo‘ljallangan zalida bir ayolning maqsadsiz aylanib yurgani haqida xabar berishdi. Muhayyo uning oldiga borib, o‘zini tanishtirdi. So‘ng juvondan pasportini so‘radi. Avvaliga ayol:

– Pasportim sumkamda, – dedi. Keyin birdan safdorning yoqasidan ushlab, asabiy holatda:

– Yo‘q! Senga pasportimni bermayman! – deb baqirdi. O‘sha vaziyatda Muhayyo kuch ishlatishi mumkin edi. Biroq juvonning ko‘zidagi iztirobni ko‘rdi, ruhiy holati yaxshi emasligini sezib, xuddi yaqin insonidek gaplashdi:

– Iya, men sizni tanidim. Bilaman, siz uchmoqchisiz-a? Sizga hozir chipta olib beramiz, pasportingizni bering.

Ayol unga ishonib hujjatini uzatdi. Muhayyoning hamkasblari darhol juvonning kimligini aniqlashib, yaqinlariga xabar berishdi. Ular tezda yetib kelishdi. Ayol oilasi bag‘riga sog‘-omon topshirildi.

Lavhamiz qahramonining qalbini qattiq ezgan yana bir voqea uning hech yodidan chiqmaydi. O‘shanda ham aeroportda xizmat o‘tayotgan edi. Kattalar orasidan kichkina bola yugurib o‘tib, kutish zali oynasi yonida turib qoldi. U taxminan besh yoshlar atrofida edi. Negadir samolyotlar tomonga termilib turardi.

– Kim bilan kelding? – deb so‘radi Muhayyo.

– O‘zim…

– Nega?

Dadam kelaman degan ekanlar. Kutib olgani chiqdim…

Bolaning ko‘zida umid, ishonch bor edi. U hali kattalar aldashi mumkinligini bilmasdi. Muhayyo bolaning onasi bilan bog‘landi. Ma’lum bo‘ldiki, ayol turmush o‘rtog‘idan ajrashgan ekan. Ammo bolasiga haqiqatni aytolmagan. «Dadang Rossiyaga ishlagani ketgan, yaqinda samolyotda uchib keladi», – deb ovutarkan. Ona ishga ketganida, bolakay aeroportga kelib, otasini kutarkan…

– Bilasizmi, xizmat davomida turli odamlarga duch keldim. Ular orasida ashaddiy jinoyatchisi ham, adashib qing‘ir yo‘lga kirgani ham bor. Ammo o‘sha bolani hanuz unutolmayman. Har safar aeroportga yo‘lim tushsa, sho‘rlik bolakay ko‘z oldimga keladi. O‘zimning ham qalbimda bir umid bor, balki, bir kun otasi rostdan ham qaytib qolar…

Muhayyo shu gaplarni aytdi-yu, jim bo‘lib qoldi. Tomog‘iga nimadir tiqilganday yutindi. Uning ko‘zlari namlangan edi...

Nilufar JABBOROVA,
o‘z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



«ТОШКЕНТ ТАШАББУСИ»:

РИВОЖЛАНИШГА БЎЛГАН ҲУҚУҚНИНГ ЯНГИ ТАЛҚИНИ

Замон билан ҳамнафас бўлиш, глобал ўзгаришларга мослашиш ва рақобатбардош бўлиб қолиш барча жабҳаларда устувор аҳамият касб этмоқда. Айниқса, сунъий интеллект, рақамли технологиялар ва инновацион ечимлар асри нафақат иқтисодиёт ва бизнес соҳасига балки инсон ҳуқуқларини таъминлаш тизимига ҳам сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Ҳозирги шиддат билан ўзгараётган дунёда сусткашлик тараққиётдан ортда қолиш хавфини юзага келтиради.

Шу нуқтаи назардан, инсоннинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлаш масаласи халқаро ҳамжамият эътиборидаги муҳим йўналишлардан бири бўлиб қолмоқда. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1986 йил декабрда қабул қилинган «Ривожланишга бўлган ҳуқуқ тўғрисида»ги декларация ушбу тамойилнинг халқаро – ҳуқуқий асосини яратди. 1997 йил 30 августдан эътиборан эса ушбу декла-

рация Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ҳам кучга кирди.

Атиги 10 та моддадан иборат бўлган ушбу ҳужжат бугунги глобаллашув, рақамлаштириш ва технологик трансформациялар даврида ҳам ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда. Унда инсон тараққиёт жараёнининг асосий субъекти сифатида эътироф этилиб, ҳар бир шахснинг иқтисодий, ижтимоий, маданий ва сиёсий ривожланишдан тенг фойдаланиш ҳуқуқи мустаҳкамланган. Айнан шу жиҳатлар бугунги кунда илгари сурилаётган Тошкент ташаббуси ва ривожланишга бўлган ҳуқуқнинг янги талқини мазмун-моҳиятини янада долзарб этмоқда.

2026 йил 14 май куни Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган «Хитой – Марказий Осиё» тўртинчи Инсон ҳуқуқларини ривожлантириш форумида илгари сурилган ушбу ташаббус бугунги глобал ривожланиш жараёнларида инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг янги ёндашувларини шакллантиришга хизмат қилиши шубҳасиз. Форумда Хитой, Қозоғистон, Қирғиз Республикаси, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистоннинг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги экспертлари, илмий доиралар, давлат органлари ҳамда бизнес ҳамжамияти вакиллари иштирок этди. Анжуманда «Юқори сифатли ривожланиш орқали инсон ҳуқуқлари соҳасидаги тараққиётни биргаликда илгари суриш» мавзуси кенг муҳокама қилинди.

Тошкент ташаббуси бевосита БМТнинг «Ривожланишга бўлган ҳуқуқ тўғрисида»ги декларацияси қабул қилинганининг 40 йиллиги билан боғлиқ. Унда ривожланиш инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг асосий омили экани яна бир бор таъкидланди. Ушбу ташаббус ривожланишга бўлган ҳуқуқни замонавий шароитда янгича талқин қилиш, давлатлараро ҳамкорликни мустаҳкамлаш ва инсон манфаатларига хизмат қилувчи барқарор тараққиёт моделини шакллантириш зарурлигини кўрсатади.

Декларацияда инсон ривожланишга бўлган ҳуқуқнинг фаол иштирокчиси ва манфаатдор томони экани қайд этилади. Мазкур ёндашув бугунги кунда айниқса, долзарб аҳамият касб этмоқда. Чунки замонавий технологиялар, сунъий интеллект ва рақамли трансформациялар даврида тараққиёт марказида инсон манфаатлари туриши муҳим ҳисобланади. Ривожланиш фақат иқтисодий ўсиш билан эмас, балки инсоннинг муносиб ҳаёт кечириши, сифатли таълим олиши, тиббий хизматлардан фойдаланиши ҳамда ўз салоҳиятини тўлиқ намоён эта олиши билан белгиланади.

Мазкур халқаро ҳужжатда ривожланишга бўлган ҳуқуқни таъминлаш аввало давлатларнинг масъулияти экани алоҳида таъкидланади. Яъни, инсоннинг муносиб ҳаёт кечириши, ўз салоҳиятини эркин намоён қилиши ва барча ҳуқуқлардан тўлақонли фойдаланиши учун давлатлар миллий ҳамда халқаро даражада қулай шароитларни яратиши лозим. Шу жиҳатдан, Тошкент ташаббуси ҳам ҳамкорлик орқали тараққиётга эришиш ғоясини илгари суриши билан аҳамиятлидир. Мазкур ёндашув давлатлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат, тенглик ва манфаатдорликка асосланган алоқалар инсон ҳуқуқларини таъминлашнинг муҳим омили эканини кўрсатади.

Бугунги кунда Марказий Осиё мин-



тақасида иқтисодий интеграция жараёнлари, транспорт ва логистика тизимларининг ривожланиши, савдо-иқтисодий алоқаларнинг кенгайиши ҳамда рақамли инфратузилманинг такомиллашуви халқларнинг фаровонлигини оширишга хизмат қилмоқда. Айниқса, минтақавий ва халқаро ташаббуслар доирасидаги ҳамкорлик янги иш ўринлари яратиш, инновацияларни жорий этиш ва барқарор ривожланишни таъминлаш учун муҳим имкониятлар яратмоқда.

Юқорида таъкидланганидек, ривожланишга бўлган ҳуқуқ фақат иқтисодий ўсиш билан чекланмайди. У инсоннинг таълим олиш, сифатли тиббий хизматлардан фойдаланиш, муносиб меҳнат қилиш ва ижтимоий ҳимояга эга бўлиш каби асосий ҳуқуқларини ҳам қамраб олади. Замонавий рақамли технологиялар ва сунъий интеллект жадал ривожланаётган бугунги даврда инсон манфаатлари, тенглик, адолат ва инклюзивлик тамойилларини таъминлаш янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу маънода, мазкур ташаббус ривожланишга бўлган ҳуқуқнинг замонавий мазмунини очиб берувчи ва инсон манфаатларини устувор қўювчи муҳим платформа сифатида намоён бўлмоқда.

«Тошкент ташаббуси» айнан ана шу ғояларни илгари сурган ҳолда, ривожланишга бўлган ҳуқуқни замонавий шароитга мос равишда талқин этишга хизмат қилмоқда. Мазкур ташаббус инсон ҳуқуқларини таъминлашда иқтисодий тараққиёт, инновациялар, халқаро ҳамкорлик ва ижтимоий адолат бир-бири билан чамбарчас боғлиқ эканини яна бир бор намоён этди. Шу жиҳатдан, БМТнинг «Ривожланишга бўлган ҳуқуқ тўғрисида»ги декларацияси орадан қарийб қирқ йил ўтган бўлса-да, бугунги кунда ҳам ўзининг долзарблиги ва халқаро аҳамиятини сақлаб қолмоқда.

Шу нуқтаи назардан, Декларацияда илгари сурилган тамойиллар ички ишлар органлари фаолияти билан ҳам бевосита боғлиқдир. Ҳужжатда инсон тараққиёт жараёнининг асосий субъекти сифатида эътироф этилади. Бу эса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида ҳам «Инсон қадри учун» тамойили устувор аҳамият касб этиши кераклигини англатади. Чунки замонавий демократик жамиятда ички ишлар

органларининг асосий вазифаси фақат ҳуқуқбузарликларни аниқлаш ёки жиноятчиликка қарши курашиш билангина чекланмайди, балки инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш, фуқароларнинг давлатга бўлган ишончини мустаҳкамлаш ҳам муҳим ўрин тутади.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ички ишлар тизимини замонавийлаштириш, аҳолига хизмат қилувчи очиқ ва шаффоф тузилмага айлантириш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, «Хавфсиз пойтахт», «Хавфсиз шаҳар», «Хавфсиз хонадон», «Хавфсиз ҳудуд», «Жиноятдан холи маҳалла» каби концепциялар асосида ҳудудларда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг янги механизмлари жорий қилинмоқда. Мазкур тизимлар орқали профилактика ва жиноятчиликнинг олдини олиш ишлари янада кучайтирилиб, аҳоли билан манзилли ишлаш амалиёти такомиллашмоқда.


Бундан ташқари, электрон мурожаатлар тизими, рақамли мониторинг, видеокузатув воситалари, биометрик идентификация ҳамда сунъий интеллект технологияларининг жорий этилиши ички ишлар органлари фаолиятининг самарадорлигини сезиларли даражада оширмоқда. Бу эса бир томондан жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлашга хизмат қилса, иккинчи томондан фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш учун қўшимча имкониятлар яратмоқда. Айниқса, давлат хизматларини рақамлаштириш орқали бюрократик тўсиқлар қисқариб, хизматларнинг тезкорлиги ва шаффофлиги ортмоқда.

Шунингдек, миграция ва персонаплаштириш соҳасида «Ақлли» миграция шохобчалари, «Пасспорт-виза» мобил иловаси, «Face-ID» ва «E-Розилик» платформаларининг йўлга қўйилиши аҳолига янада қулай ва сифатли хизмат кўрсатиш имконини беради.

Бугунги кунда жиноятчиликнинг шакл ва усуллари ҳам замон билан бирга ўзгариб, тобора мураккаблашиб бормоқда. Хусусан, кибержиноятлар, молиявий фирибгарлик, ноқонуний миграция ҳамда шахсга доир маълумотларни ноқонуний қўлга киритиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар янги хавф ва таҳдидларни юзага келтирмоқда. Шу боис ички ишлар органлари ходимлари ҳам замонавий билим ва кўникмаларга эга бўлиши, рақамли технологияларни пухта эгаллаши ҳамда тезкор ва инновацион ёндашувлар асосида фаолият юритиши муҳим аҳамият касб этади.

Зеро, хавфсизлик ва инсон ҳуқуқлари бир-биридан ажралмас тушунчалардир. Тинч ва хавфсиз жамият бўлмаган жойда инсоннинг ривожланишга бўлган ҳуқуқини тўлақонли таъминлаш мушкул. Шу маънода, Ўзбекистонда амалга оширилаётган рақамли ислоҳотлар, ички ишлар органлари тизимини модернизация қилиш ва инсон манфаатларини устувор қўйишга қаратилган ёндашувлар БМТнинг «Ривожланишга бўлган ҳуқуқ тўғрисида»ги декларациясида илгари сурилган тамойилларнинг амалий ифодаси сифатида намоён бўлмоқда.

Шодия ИСМОИЛОВА,
Инсон ҳуқуқлари бўйича
Ўзбекистон Республикаси
Миллий маркази етакчи мутахассиси.



QOQILGANNI SUYASH KERAK

Bir lahzalik jahl, g‘azabga berilish ba’zan butun umrga tatigulik pushaymonlikka sabab bo‘ladi. Afsuski, oilaviy nizolar zamirida sodir etiladigan og‘ir jinoyatlar orasida ana shunday holatlar ham uchrab turadi.

Vobkent tumanida yashovchi Sanobar (ism-shariflari o‘zgartirildi) ham hayotida og‘ir xatoga yo‘l qo‘ydi. U turmush o‘rtog‘i bilan janjallashib qoladi. Shunda jahl «ot»iga minib, oshxona pichog‘i bilan eriga tan jarohati yetkazib, uning o‘limiga sababchi bo‘ldi. Sud ayolga qilmishi uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinladi.

Sanobar jazo muddatini o‘tash davomida o‘z qilmishidan astoydil pushaymon bo‘ldi, xatosini anglab yetdi. Ayniqsa, farzandlarining otasiz o‘sib-ulg‘ayayotgani, uni chuqur o‘ylantirardi. Keyinchalik qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgani bois jazosining o‘talmay qolgan qismi axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirildi va u probatsiya nazoratiga olindi. Sanobar bilan muntazam profilaktik suhbatlar o‘tkazilib, u ishga joylashtirildi.

Tuman IIB JXX probatsiya guruhi xodimlari tomonidan bunday shaxslarni jamiyatga moslashtirish, ularning bandligini ta’minlash va qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Har biri bilan yakka tartibda ish olib borilib, huquqiy va ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda.

– Joriy yilning o‘tgan davri davomida tuman hokimligi hamda bandlikka ko‘maklashish tizimi xodimlari bilan hamkorlikda 9 marotaba «Ishga marhamat!» mehnat yarmarkasi o‘tkazildi, – deydi tuman IIB JXX probatsiya guruhi katta inspektori, mayor Behruz Toshpo‘latov. – Natijada 28 nafar shaxs turli korxonalarga ishga joylashtirildi. Bundan tashqari, nazorat doirasiga tushgan shaxslar har tomonlama o‘rganilib, avvalambor ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, psixologiyasi, jinoyat sodir etilishiga turtki bo‘lgan sabab va omillar e’tiborga olinyapti.

Probatsiya nazoratida turgan mahkumlarni nazorat qilish va ular bilan profilaktik ishlarni kuchaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Har kuni kechki va tungi vaqtlarda xizmatga jalb qilingan profilaktika inspektorlari tomonidan o‘z ma’muriy hududlarida yashovchi mahkumlar bilan qisqa suhbat o‘tkazilyapti.

Mutasaddilarning ta’kidlashicha, probatsiya xizmati xodimlari va profilaktika inspektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish orqali mahkumlarning tuzalish yo‘liga o‘tishi, jamiyatga moslashuvi hamda qayta jinoyat sodir etishining oldini olish borasida samarali natijalarga erishilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mahallalarda tinchlik-osoyishta-

likni ta’minlash va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda bir misol keltirsak. Jasur ismli shaxs sud tomonidan belgilangan cheklovlar inson hayotida qanday ahamiyat kasb etishini amalda his qila boshladi. Uning aytishicha, ozodlikni cheklash jazosining tarbiyaviy ta’siri juda katta ekan. Chunki mahkum belgilangan vaqtlarda o‘z yashash manzilida bo‘lishi, probatsiya xizmati tomonidan o‘rnatilgan talablarga qat’iy amal qilishi lozim.

– Bir kuni tanishlarim orqali yaxshi haq to‘lanadigan vaqtinchalik ish chiqdi. Ish kechki vaqtgacha davom etishi kerak edi. Biroq men sud tomonidan belgilangan cheklovlarda belgilangan vaqtdan kech qolishim mumkinligini hisobga olib, ushbu taklifni rad etishga majbur bo‘ldim. O‘sha paytda qilgan xatoim sababli o‘z imkoniyatlarimni o‘zim cheklab qo‘yganimni yana bir bor angladim, – deydi Jasur.

Joriy yilning o‘tgan davrida jazoni o‘tab, ozodlikka chiqqan 7 nafar shaxs tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning sog‘lom hayot tarziga qaytishi hamda jamiyatga tezroq moslashishiga ko‘maklashildi. Ularga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi. Bu kabi choralar probatsiya nazorati ostidagi mahkumlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda nazoratdagi shaxslar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonda ularda mehnatga halol munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilyapti, jazoni o‘tash tartib-qoidalariga qat’iy rioya qilish hamda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish zarurligi tushuntirilyapti.

Shu o‘rinda probatsiya guruhi texnik xodimi Alisher Teshayev tomonidan mahkumlarning psixologik portretini shakllantirilayotganini ta’kidlash joiz. Mutaxassis ularning xulq-atvoridagi yorqin jihatlar, introvertlik darajasi, intuitsiyasi, his-tuyg‘ulari, axloqiy qarashlari, irratsionallik belgilari, qaysi faoliyat turiga moyilligi, ma’naviy dunyosi, mimika va pantomimikasi, suhbat jarayonida namoyon bo‘ladigan alohida xususiyatlarini aniqlaydi. Shu asosda mahkumlar ijobiy, neytral va salbiy toifalarga ajratilib, har biri bilan shunga mos tarzda yakka tartibda ishlash choralari belgilanadi.

Afsuski, profilaktik suhbatlar, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashlarga qaramay, qayta jinoyat sodir etayotgan yoki belgilangan jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlayotgan shaxslar ham uchrab turibdi. Ana shunday 7 nafar mahkum ustidan sudga taqdimnoma kiritilib, 5 nafarining jazosi ozodlikdan mahrum etish jazosiga, 2 nafariniki esa ozodlikni cheklash jazosiga o‘zgartirildi.

Misol uchun aytadigan bo‘lsak, muqaddam bir necha bor sudlangan B. Hayotov sud tomonidan tayinlangan cheklovlarga rioya etmadi. U spirtli ichimlik iste’mol qilib, belgilangan tartib-qoidalarni qo‘pol ravishda buzdi. Natijada sud qarori bilan unga nisbatan ilgari tayinlangan ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirildi.

Probatsiya nazorati ostidagi shaxslar orasida to‘g‘ri xulosa chiqarayotganlar ham bor. Bahrom muqaddam sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan edi. Soha xodimlari uning yashash va ish joyini muntazam o‘rganib bordi. Olib borilgan kuzatuvlar davomida Bahromning qonun talablariga rioya qilayotganligi, mehnat jamoasi va mahalla faollari orasida ijobiy tavsifga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgani, oila a’zolariga moddiy va ma’naviy ko‘mak berib kelayotgani ham inobatga olindi. Sud Bahromning ijobiy xulq-atvori, mehnatga halol munosabati hamda belgilangan talablarga qat’iy rioya qilib kelganligini inobatga oldi va jazoning o‘talmay qolgan qismidan muddatidan ilgari shartli ozod etish haqida qaror qabul qildi.

Ha, hayotda hamma ham qoqilishi, adashishi mumkin. Shunday paytda qoqilganlarning suyash kerak. Bunday savob ishga nima yetsin. Bu ularning o‘z xatolarini anglab, to‘g‘ri yo‘l topishlarida muhim omil bo‘ladi.

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI XIZMATINING JARANGDOR OVOZI

27-iyun – kuni milliy axborot makonida mehnat qilayotgan media sohasi vakillarining fidokorona xizmati e’tirof etiladigan bayramdir. So‘zning qudratini, axborotning cheksiz kuchini namoyon etib, jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan jurnalist va muharrirlar, rejissyor va operatorlar, blogerlar, tele-radio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxonalar xodimlarini qadrlash kuni.

Zero, bugungi axborot asrida dunyoni qurol emas, axborot boshqarmoqda. Insonlar qaror qabul qilishdan tortib, dunyoqarashini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarda xabar va yangiliklarga tayanmoqda. Shunday ekan, axborot bilan ishlash, uni xolis va haqqoniy tarzda jamoatchilikka yetkazish ulkan mas’uliyatdir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Jamiyatda fikrlar xilma-xil, qarashlar turlicha. Samarali islohotlar bilan yonma-yon kamchilik va muammolar ham bor. Ana shunday murakkab va mas’uliyatli jarayonlarda haqiqatni xolis yoritish, voqealarga adolatli yondashish, odamlarning dardini tinglab, uni keng jamoatchilikka, tegishli tashkilotlarga yetkazish chinakam

jurnalistik jasorat va yuksak mahorat talab etadi.

Ana shunday fidoyi va mas’uliyatli kasb egalari safida IIV JXD YHXX Axborot xizmati boshlig‘i, katta leytenant Zoyir Yo‘ldoshov ham bor. Axborot maydonida ijodkorlik va tashabbuskorlikni kasbiy mahorat bilan uyg‘unlashtira olgan lavhamiz qahramoni 2018-yildan buyon ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda.

Uning tizimdagi faoliyati Navoiy viloyati IIB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi Matbuot guruhi inspektori lavozimidan boshlangan edi. Yosh mutaxassis o‘z vazifasini talab darajasida bajarish uchun tinimsiz mehnat qildi, doimo izlandi. Negaki, mazkur sohaviy xizmatdagi har bir axborot ortida inson taqdiri turadi. Har bir raqam zamirida kimningdir xatosi va yana qaysidir oilaning armoni yashirin…

Keyingi yillarda Zoyir Yo‘ldoshov IIV Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi Multimedia markazi kichik inspektori, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘ining matbuot kotibi, Navoiy viloyati IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi Axborot xizmati boshlig‘i hamda Navoiy viloyati IIB Axborot xizmati boshlig‘i kabi mas’uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritdi.

Bu davr uning uchun chinakam kasbiy mahorat maktabi bo‘ldi. U sohada axborot bilan ishlashning nozik jihatlarini qunt bilan o‘rgandi. Jurnalistika va ichki ishlar organlari tizimining uyg‘unlashgan holda, xalq bilan muloqot qilishning o‘zi uchun samarali usullarini shakllantirdi. Ona Vatanga muhabbat, kasbga mehr, burchga sadoqat, yuksak mas’uliyat hissi, doimiy izlanish, o‘z ustida tinimsiz ishlash va samarali mehnat Zoyir Yo‘ldoshovni Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining ommaviy axborot vositalaridagi yetakchi va jarangdor ovozlaridan biriga aylantirdi.

Yo‘llardagi harakat xavfsizligi avvalo, inson ongidagi intizomdan boshlanadi. Harakat ishtirokchilarining huquqiy madaniyati esa targ‘ibot orqali shakllanadi. Hozirda Zoyir Yo‘ldoshov rahbarligidagi jamoa hamfikrligi va hamjihatligida tayyorlayotgan har bir ijodiy lavha, ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi chiqishlar va keng ko‘lamli targ‘ibot-tashviqot ishlari minglab fuqarolarning huquqiy ongi va yo‘llarda harakatlanish madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

– Bugungi kunda xalqimizga yetkazilayotgan har bir axborot katta kuchga ega, – deydi katta leytenant Zoyir Yo‘ldoshov. – Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari yo‘llarda tartib va xavfsizlikni ta’minlasa, axborot xizmati vakillari xavfsizlik madaniyatining targ‘ibotchilaridir. Biz haydovchilar, piyodalar va yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilarini hushyorlikka, ogohlikka hamda qonun-qoidalarga hurmat bilan qarashga da’vat etamiz. Har bir chiqishimiz, har bir targ‘ibotimiz ortida inson hayotini asrashdek, ezgu maqsad mujassam.

IIV JXD YHXX Axborot xizmati faoliyati bilan yaqindan tanishar ekanmiz, har bir videorolik oddiy lavha emas, sodir etilishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy fojianing oldini olishga qaratilgan murojaat, har bir televidenie orqali qilingan chiqish oddiy reportaj emas, insonlar umrini asrashga qaratilgan da’vat, har bir targ‘ibot tadbiri oddiy uchrashuv emas, xavfsiz hayot uchun qo‘yilgan muhim qadam ekanligiga amin bo‘ldik. Ba’zan birgina ogohlantirish qaysidir insonning umrini saqlab qoladi, birgina murojaat yuzlab fuqarolarni yo‘llarda hushyorlikka chorlaydi. O‘lim bilan yakunlangan yo‘l-transport hodisalari esa butun jamiyatni chuqur mushohada etishga majbur qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, har bir targ‘ibot, ommaviy axborot vositalaridagi har bir chiqish fuqarolar hayotini asrashga qaratilgan muhim chaqiriqdir!

Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
leytenant.

USTOMONLARDAN USTAROQ EKSPERTLAR

2025-yil 21-sentabr kuni kechki soat tahminan 19:00 larda M-34 xalqaro avtomagistralining Yangier shahrini kesib o‘tgan qismida yo‘l chetidan noma’lum kishining murdasi topilgani to‘g‘risida «102» xizmati orqali xabar kelib tushdi. Oqoltin tumani IIB tergov-tezkor guruhi zudlik bilan voqea joyiga yetib bordi. Holat ayanchli, marhumni katta ehtimol bilan mashina urib yuborgan, uning tanasi qattiq shikastlangan, yuzi tanib bo‘lmas darajada shikastlangan edi.

Shu zahoti Sirdaryo viloyati IIB EKMdan voqea joyiga tajribali mutaxassis yuborildi. Odatda murdani tanib bo‘lmasa, biometrik ma’lumotlardan foydalaniladi. Malakali bosh ekspert, podpolkovnik Gulnoza Mirzabekova marhumning qo‘l barmoq izlarini oldi. Uning jussasi, taxminiy yoshi, yuz tuzilishiga oid boshqa ma’lumotlarni qayd etdi.


Barmoq izlari Respublika Personallashtirish markazining bazasidagi ma’lumotlar bilan solishtirilganda, ushbu shaxs Boyovut tumanida yashovchi 1977-yilda tug‘ilgan N.S. ekani aniqlandi. Hodisa sodir bo‘lgan joyda yana bir ekspert ishlardi. U trassologik tadqiqot o‘tkazib, odam urib yuborgan «Gentra» avtomobilining tezligi, tormozlanish masofasini aniqlab berdi. Tekshiruvlar natijasida avtomobil egasi belgilangan me’yordan ancha yuqori tezlikda harakatlangani ma’lum bo‘ldi.


– Afsuski, zamon bilan hamqadam ravishda jinoyatchilik ham yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda, – deydi Sirdaryo viloyati IIB EKM boshlig‘i, podpolkovnik Bekzod Botirov. – Xususan, avtomobillarni soxtalashtirish holatlari ham ko‘plab uchrayapti.

Ma’lum bo‘lishicha, firibgarlar avtombillarni soxtalashtirishning yangi usullarini o‘ylab topishgan. Gap shundaki, ular allaqachon yaroqsiz holga kelgan, avariyaga uchragan avtomobillarning kuzov raqamini boshqa avtomobilga urishning texnologiyasini yaratishgan. Shu yo‘l bilan avtombilni bankka garovga qo‘yib, katta miqdorda kredit rasmiylashtirishgan. Sinchkov ekspertlar ushbu raqamlar soxtaligini aniqlashganda, avtomobil bundan oldin ham garovga qo‘yilib, 50-60 million so‘m miqdorda kredit olingani ma’lum bo‘lgan.



Natijada ayrim kredit tashkilotlari, banklar firibgarlar tuzog‘iga tushib qolishgan. Kuzov raqamining soxstaligini aniqlash ekspertdan katta mahorat va chuqur bilim talab qiladi. Buning uchun avtomobilning peshoyna tagidagi qismi bo‘yog‘i tozalanadi. Raqamlarning qanday uskuna bilan urilgani solishtiriladi. Odatda sinchiklab tekshirilshganda kuzovda asl raqamlarning izi saqlanib qoladi. Qalbaki raqam-





lar esa uning ustiga urilgani ma’lum bo‘ladi.

– Pullarni soxtalashtirish holatlari ham keyingi paytda juda tez-tez uchrayapti – deydi, viloyat IIB EKB katta eksperti, mayor Zafar Arzikulov. – Ba’zan ularni aniqlashda zamonaviy texnikalar ham ojiz qoladi. Faqatgina inson aql-u tafakkuri yordamida buni fosh eta oladi.

Guliston shahrida sodir bo‘lgan voqeada hatto bankdagi pulning soxtaligini tekshiruvchi moslama ham buni aniqlay olmagan. Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)dan qaytgan ayol bir necha ming yevro miqdoridagi pullarni bankka almashtirish uchun topshirgan. Bank xodimasi ularni mashinkalar orqali tekshirgan. Holatni kuzatib turgan profilaktika inspektori ushbu ayolning xatti-harakatidan shubhalangan. Shu boisdan pullarni har ehtimolga qarshi tekshirib ko‘rishni so‘rab, Sirdaryo viloyati IIB EKMga rasman murojaat qilgan.

O‘tkazilgan tekshiruvlardan pullar o‘ta ustalik bilan, zamonaviy lazer printerlari orqali yasalgani, hatto golografik himoya chiziqlari ham o‘xshatilgani ma’lum bo‘lgan. Faqat pulning birgina qismida chiziqlar va ranglar spektri aslidagi bilan mos kelmagan. Millimetrdan kichik ushbu nuqsoni orqali pulning qalbakiligi isbotlangan. Surishtiruvlar natijasida qalbaki yervrolar BAAda bir necha karra arzon narxda xarid qilingani, O‘zbekistonga almashtirish uchun olib kirilgani aniqlangan.

2025-yil 11-sentabrda tungi paytda Yangier shahrining Gulshan ko‘chasida turgan, fuqaro K. M. ga tegishli davlat raqam belgisi 20 K 843 AA bo‘lgan «VAZ 2101» rusumli transport vositasi yo‘qoladi. Tabiiyki, buni avtoulov egasi erta tongdagina bilib qoladi. Jabrlanuvchining murojaati asosida qidiruv boshlanadi.

Qidiruv tadbirlari natijasida avtomashina Yangier shahrining «Fazilat» MFY hududida yo‘l chetida qoldirib ketilgani ma’lum bo‘ladi. U yon oynalari buzib ochilgan holatda turardi. Yangier shahar IIB EKG katta eksperti, podpolkovnik Abduvahob Abdumavlonov avtomashina eshiklari va rul qismidan qo‘l barmoq izlarini oladi. Ular bir-birining ustiga ko‘p bora bosilgani bois, izlarni aniq ajratish mashaqqat tug‘diradi. Ekspertning mahorati, tajribasi qo‘l kelib, barmoq izlari 2007-2008-yillarda tug‘ilgan yosh yigitlarga tegishli ekani ma’lum bo‘ladi.

Sirdaryo viloyati IIB EKM fidoyi xodimlarining jinoyatlarni fosh etishga oid mashaqqatli va sharafli ishlariga oid yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

Меры, направленные на формирование безопасной среды в махаллях столицы, выходят на качественно новый уровень. Специалисты Академии МВД Узбекистана осуществляют целенаправленную деятельность, способствуя внедрению современных методов предупреждения преступности.



ДЕЙСТВЕННЫЙ МЕХАНИЗМ:

«СТОЛИЧНЫЙ ОПЫТ» ПРОФИЛАКТИКИ В МАХАЛЛЕ БОТИРМА

Очередной объект комплексного мониторинга – махалля Ботирма Чиланзарского района. Это крупный жилой массив: здесь проживает более 8 тысяч человек. На территории махалли расположены Университет Пучон, частная школа «Lumos», дошкольные образовательные организации, учебные центры, многочисленные объекты социального назначения. На примере махалли отрабатывается многоуровневая модель «столичного опыта» по раннему предупреждению преступности.

К ИСКОРЕНЕНИЮ ПРИЧИН

Статистический анализ показывает, что наиболее уязвимой точкой, негативно влияющей на криминогенную обстановку в махалле, остаются кражи.

Для достижения устойчивого результата рабочая группа Академии совместно с представителями «махаллинской семерки» разработала план, состоящий из 5 приоритетных направлений. Чтобы система работала как единый организм, проведены обучающие занятия по методике выявления объектов профилактики. Кроме того, разработаны методические пособия, адаптированные для каждого члена «семерки».

Главный принцип внедряемой модели – бороться не с последствиями совершенных преступлений, а выявлять и устранять причины и условия, им способствующие. В ходе обходов определены потенциальные «очаги преступности». Мониторинг выявил зоны, нуждающиеся в повышенном внимании. В их числе четыре хостела, улица Аль-Хорезми. Всего в ходе про-



верок на учет взято 42 объекта социальной профилактики, а также лица, входящие в «группу риска».

КОНТУРЫ БЕЗОПАСНОСТИ

Профилактика правонарушений сегодня немыслима без ИТ-решений. Курсанты, обучающиеся по направлению противодействия киберпреступности, под руководством наставников, провели масштабную технологическую ревизию территории. Ими проделана работа по созданию «цифрового двойника» махалли:

- осуществлена верификация 387 видеокамер, расположенных на улицах и жилых домах, 147 – на объектах торговли и услуг;
- осуществлена панорамная фотосъемка 135 социальных, образовательных, коммерческих и государственных объектов;
- данные интегрированы в электронную платформу экосистемы «Хавфсиз маҳалла».

На территории выставлены дополнительные пешие патрульные маршруты, в том числе вдоль оживленной улицы Аль-Хорезми. Привлечение курсантов Академии к охране общественного порядка стало эффективной школой их профессионального становления.

Параллельно укрепляется технический барьер: модернизировано уличное освещение, в подъездах 34 многоэтажных домов установлены тревожные кнопки. Ведется активная работа с жителями по подключению их квартир на договорной основе к пульту службы охраны. Благоустроена и очищена от зарослей территория между домами площадью 2,4 га, что ликвидировало так называемые «слепые зоны».

Учитывая рост интернет-мошенничества, рабочая группа сделала упор на повышение цифровой грамотности населения. К ведомственному мобильному приложению «Менинг инспекторим» подключены 2,8 тыс. жителей. Проведены индивидуальные консультации по кибербезопасности. На мобильные телефоны 340 граждан установлена двухэтапная аутентификация. Около 450 жителей подписались на профильный Telegram-канал «Cyber_102» и другие сервисы безопасности. Для 385 пользователей через портал my.gov.uz активирована функция добровольного запрета/ограни-



чения на получение кредитов в целях защиты от мошеннических действий.

Проведено более тысячи разъяснительных мероприятий. Информированием охвачены жители махалли, участники Первого международного фестиваля Университета Пучон «Bucheon Future Fest 2026», учащиеся 7–11 классов школы «Lumos». Распространено 5 тысяч флаеров и буклетов («Берегись киберпреступлений!», «Велосипед или детская коляска? Вору все равно!», «Рекомендации по предупреждению квартирных краж»).

ЧТО ДУМАЮТ ЛЮДИ?

Индикатором деятельности стал опрос, в котором приняли участие 5,1 тыс. жителей махалли. Это явилось инструментом обратной связи.

Подавляющее большинство респондентов (74% опрошенных) заявили, что проблемы по их обращениям были решены своевременно и полностью. Часть жителей махалли отметила, что их обращения на данный момент находятся в стадии рассмотрения либо решены частично. Это свидетельствует о том, что перед рабочей группой и махаллинским комитетом стоит немало актуальных задач.

Оценивая уровень удовлетворенности работой «махаллинской семерки», респонденты отметили существенную активизацию ее деятельности после качественного обновления состава и перехода на новую систему работы.

Благодаря анкетированию удалось выявить «невидимые» проблемы. Собранная информация доведена до ответственных органов для принятия мер и оказания гражданам адресной социальной помощи.

– Предстоит дальнейшее техническое переоснащение территории, расширение охвата видеонаблюдения, переход от точечных мер к системной оздоровительной работе в конфликтных семьях, – подчеркивает доцент Академии МВД подполковник Ойбек Холмуминов. – Комплексные оперативно-профилактические мероприятия продолжаются, подтверждая, что эффективность достигается в результате совместных усилий и выстраивания открытого, доверительного диалога с жителями.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

According to Surayyo Rahmonova, the representative of the Oliy Majlis on Children's rights (Children's ombudsman), the protection of children's rights remains one of the priority areas of state policy in Uzbekistan.



CHILDREN'S RIGHTS – A SUPREME VALUE

In 2025, 19 criminal and 26 administrative cases were initiated concerning violence against children, and 20 refusal decisions were overturned and sent for further investigation. Furthermore, 15 teaching staff were subject to administrative sanctions for breaching the law, while 6 teachers and 2 law enforcement officers received disciplinary sanctions.

34 percent of appeals concerning the protection of children from violence related to situations in educational institutions. In this regard, a draft law has been developed to restrict the pedagogical activities of educators who have committed violence against a child.

Uzbekistan has been recognised internationally in the field of combating child labour. According to a report by the US Department of labor, our country is among the four states that have achieved the highest results in eliminating child labour. At the same time, in some cases, instances of children being involved in hard labour and begging have been identified, and measures are being taken against those responsible.

In 2025, the Children's ombudsman received 1,934 appeals, which is 84 percent more than the previous year. The majority of the appeals concerned issues related to the protection of children from violence, material provision, and the family environment.

According to the «U-Report» survey, only 27 percent of children reported being able to express their opinions freely. Therefore, listening to children's views and ensuring their rights remains a pressing task.

According to Surayyo Rahmonova, Uzbekistan has been consistently implementing the principles of the UNO Convention on the Rights of the child. In the future, special attention will be paid to strengthening the responsibility of state bodies, ensuring children's safety on the internet, and increasing their digital literacy.

Giyohvandlik nafaqat insonning sog‘lig‘ini yemiruvchi, umriga zomin bo‘luvchi, balki jamiyat rivojiga raxna soluvchi, oilalarni parokanda qilib, turli mudhish jinoyatlarga zamin yaratuvchi asr vabosidir.

OQ «TOPILMA»ning QORA OQIBATLARI

Shu bois mazkur illatga qarshi keskin va murosasiz kurashish, ertangi kun osoyishtaligini ta’minlash bugun dunyo hamjamiyati, xususan, yurtimiz huquq-tartibot organlari oldidagi eng birlamchi vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu vaboga qarshi kurashishga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi hamda uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlari ham munosib hissa qo‘shib kelishmoqda. Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, boshqarmaning xizmat ko‘rsatish hududining umumiy uzunligi 1021,9 kilometrni tashkil etadi. Mana shunday ulkan masofada yo‘lovchilar xavfsizligi va osoyishtaligini tunu kun ta’minlash, har qanday jinoiy holatning oldini olish katta mas’uliyat va sergaklikni talab qiladi.

Xususan, boshqarma xodimlari tomonidan xizmat hududida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida o‘tkazilayotgan «Qora dori 2026» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari davomida bir qator jinoiy harakatlarga chek qo‘yildi. Misol uchun, olingan tezkor ma’lumotga ko‘ra, «To‘rtko‘l – Miskin» temir yo‘l bekatlari oralig‘ida joylashgan tuman taxta bozorining orqa tomonida shubhali xatti-harakatlari bilan diqqatni tortgan fuqaro A.T. to‘xtatilib, xolislar ishtirokida ko‘rikdan o‘tkazildi. Natijada uning cho‘ntagidan oq-sarg‘ish rangli modda topildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazi tomomnidan o‘tkazilgan ekspertiza davomida «topilma» geroin giyohvandlik vositasi ekanligi aniqlanadi.

To‘rtko‘l tumanida o‘tkazilgan boshqa tezkor-qidiruv tadbiri davomida yana bir og‘ufurushning kirdikorlari fosh etildi. Fuqaro M.A. o‘zining xonadonida giyohvandlik vositasini 200 ming so‘mga sotayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘l olindi. Uning uyi ko‘zdan kechirilganda, yelim idish ichiga yashirilgan, jami 8 dona alohida qadoqlangan, o‘tkir hidli, oq-sarg‘ish rangli mayda kukun va kichik toshsimon moddalar borligi aniqlanib, xolislar ishtirokida rasmiylashtirib olindi. Ekspertiza davomida ular geroin giyohvandlik vositasi ekanligi tasdiqlandi.

– Giyohvandlik – chegara bilmas balo. Unga faqat huquq-tartibot organlari xodimlarining kuchi bilangina butunlay chek qo‘yib bo‘lmaydi. Ushbu illatga qarshi kurashish, atrofdagi shubhali holatlar yoki og‘ufurushlar haqida o‘z vaqtida tegishli idoralalarga xabar berish har bir fuqaroning insoniylik burchidir, — deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i mayor A. Abdirahmanov.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatga jazo, albatta, muqarrardir. Oq og‘uning ortidan osongina boylik orttirish maqsadida giyohfurushlik bilan shug‘ullanib, o‘zgalarni zaharlayotgan kimsalar ertami-kechmi qonun oldida javob beradilar. Biroq asosiy maqsad faqatgina jinoyatni fosh etish va jinoyatchini jazolash emas, balki qonunbuzarliklarning barvaqt oldini olishdir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

Surxondaryo viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo‘linmasi 1-guruh kichik inspektor-kinologi, safdor Jahongir Abdunazarov tizimdagi xizmat faoliyatini 2017-yilda PPX xodimi sifatida boshlagan edi.

TAQDIRNING TADBIRI

Keyinchalik viloyat IIB HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazida zimmasiga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajardi. Ammo o‘sha paytda kelajagi kinologiya xizmati bilan bog‘lanishini xayoliga ham keltirmagan edi.

Taqdir taqozosi bilan Jahongir Abdunazarov 2019-yildan kinologiya bo‘linmasida faoliyatini davom ettiryapti. Lavhamiz qahramoniga «Ris» laqabli xizmat iti biriktirildi. Avvaliga zabonsiz jonivor bilan ishlash oson kechmadi. Itning xarakterini tushunish, ishonchini qozonish, buyruqlarni jonivorga to‘g‘ri o‘rgatish katta sabr va mehnat talab qilardi. Biroq yosh kinolog mashaqqatlardan cho‘chimadi, ortga chekinmadi. U «Ris»ni nafaqat xizmat iti sifatida tarbiyaladi, balki vafodor ko‘makchisiga aylantira oldi.

Qisqa vaqt ichida ular giyohvandlik vositalarini aniqlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan muvaffaqiyatli o‘tishdi. Shundan so‘ng ko‘plab tezkor tadbirlarda ishtirok etib, jinoyatlarni fosh etishda va huquqbuzarlarni qo‘lga olishda maqtovga arzirli natijalarga erishdi.

Yaqinda Davlat xavfsizlik xizmatining Surxondaryo viloyati boshqarmasi xodimlari tomonidan Angor tumani hududidagi katta yo‘lda Afg‘onistonga tegishli yuk avtomobili to‘xtatildi. Mashina shubha uyg‘otgani sababli tekshiruv jarayoniga safdor Jahongir Abdunazarov va uning to‘rt oyoqli yordamchisi jalb etildi. Ko‘zdan kechirish vaqtida «Ris» avtoulovning yukxona qismi atrofida bezovta o‘ralashaverdi. O‘sha joy sinchkovlik bilan tekshirilganda, 35 kilogramm opiy giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi. Ashyoviy dalillar belgilangan tartibda rasmiylashtirib olindi.

Yoz oylarining birida Boysun tumanidagi «Darband» YPX maskanida Denov–Toshkent yo‘nalishida harakatlanayotgan «Cobalt» rusumli avtomobil to‘xtatildi. Mashina salonidagi yo‘lovchilardan birining xatti-harakati Jahongir Abdunazarovda shubha uyg‘otdi. Tekshiruv jarayonida «Ris» aynan shu yo‘lovchiga hurib, uning yonida taqiqlangan modda borligiga «ishora qildi». Ko‘zdan kechirish vaqtida uning yonidan gashish giyohvandlik vositasi topildi. Shu tariqa yana bir jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

Jahongir Abdunazarov xizmatda qanchalik mahoratli, fidoyi xodim bo‘lsa, oilada shunchalik mehribon turmush o‘rtoq va g‘amxo‘r otadir. U farzandlarining kamolini hayotidagi eng katta boylik deb biladi. Bo‘sh vaqtlarida sport bilan shug‘ullanadi, xususan futbol o‘ynashni yaxshi ko‘radi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.





BUTUN SHAHAR KAFTDEK NAMOYON

TAKSIDAGI VOQEA

Jizzax viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi «102» navbatchilik qismiga kelib tushgan xabar shu zahotiyoq «Qalqon» platformasi orqali tekshiruvga yo‘naltirildi. Murojaatga ko‘ra, maktabga o‘rnatilgan turniket orqali 4-sinf o‘quvchisi soat 13:20 da ta‘lim muassasasidan chiqqan. Bu xabar onaning qo‘l telefoniga maxsus bot orqali shu zahotiyoq yetib kelgan. Biroq oradan salkam ikki soatga yaqin vaqt o‘tsa hamki, bola uyga kelmagan. Ona farzandining har kuni taksida uyga qaytishini bilardi. O‘g‘liga uyali telefon olib bermaganiga shu payti rosa afsuslandi. O‘ylay-o‘ylay «112» xizmatiga qo‘ng‘iroq qilib, murojaat qoldirdi.

Oradan hech qancha vaqt o‘tmay unga viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi navbatchilik qismidan qo‘ng‘iroq qilishdi. O‘zini tanishtirgan xodim voqea tafsilotlarini yana bir qur surishtirgach, bolaning tashqi belgilari, maktab joylashgan manzil va boshqa ma’lumotlarni aniqlashtirib oldi. Murojaat zudlik bilan ro‘yxatga olinib, vaziyatga aniqlik kiritish ishlari boshlandi.

Dastlab bolaning maktabdan chiqqan vaqti va yo‘nalishi aniqlandi. Shundan so‘ng «Xavfsiz shahar — Qalqon» platformasi orqali u harakatlangan yo‘llar bo‘yicha kuzatuv kameralari tekshirildi. O‘sha paytda bola o‘qiydigan maktab yaqiniga o‘rnatilgan kamera orqali qayd etilgan vaqtda maktabdan chiqqan o‘g‘il bolalar tasviri kuzatila boshlandi. Kuzatuv tashqi belgilariga ko‘ra aniqlab olingan bolalarning keyingi harakat yo‘nalishi bo‘ylab davom etdi. Ular orqasida kulrang ryukzak (elkaxalta) tutgan bolakay oq rangli «Matiz» rusumli avtomashinaga o‘tirgani aniqlandi.

Shundan so‘ng ushbu avtomobilning keyingi harakat yo‘nalishlari kuzatildi. Buni qarangki, oradan o‘tgan ikki soat vaqt mobaynida kirakash bir qancha yo‘lovchilarni mashinasiga o‘tqazib, manzilga eltgan. Ammo bolaning avtomashinadan tushgani tasviri hech ham uchramas edi. Shundan so‘ng haydovchi bilan tezkor tarzda

bog‘lanildi.

Ma’lum bo‘lishicha, shaharda piyodalar uchun yer osti yo‘li qurilayotgani sababli ayrim ko‘chalarda harakat cheklangan va aylanma yo‘llar paydo bo‘lgan. Shu bois taksi haydovchisi avval katta yoshli boshqa mijozlarni manziliga yetkazib qo‘ygan, so‘ngra bolani uyiga olib bormoqchi bo‘lgan. Bolaning salomatligi va xavfsizligi joyida ekani ma’lum bo‘lib, u oilasi bag‘riga sog‘-omon qaytarildi. Holat yuzasidan taksi haydovchisi bilan profilaktik suhbat o‘tkazilib, voyaga yetmagan yo‘lovchilarni tashishda xavfsizlik va mas’uliyat talablariga qat’iy rioya qilish lozimligi uqtirildi.



KAMERALAR YORDAMIDA

Birgina shu voqeaning o‘zi ham «112» xizmati va «Qalqon» platformasining imkoniyatlari fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda naqadar muhim o‘rin tutayotganini yana bir bor namoyon etadi. Ushbu xizmat tomonidan fuqarolar murojaatlariga tezkor munosabat bildirilishi natijasida turli ko‘ngilsiz holatlarning oldi olinmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda aholi murojaatlariga tezkor va aniq javob qaytarish ichki ishlar organlari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Jizzax viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi «102» xizmati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar aholi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida «112» xizmati orqali «102» navbatchilik qismiga jismoniy va yuridik shaxslardan 40 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan. Ushbu murojaatlar navbatchi xodimlar tomonidan zudlik bilan qabul qilinib, holat tafsilotlari aniqlashtirildi, – deydi viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi navbatchilik qismi boshlig‘i, kapitan Abdusattor Tog‘ayev. – Murojaatlar tegishliligi bo‘yicha tuman va shahar ichki ishlar bo‘limlari navbatchilik qismlariga darhol yo‘naltirilib, tergov-tezkor guruhlari voqea joyiga chiqib, zarur chora-tadbirlar amalga oshirgan. Bu esa jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, sodir etilgan holatlarga tezkor munosabat bildirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xizmat samaradorligini yanada oshirmoqda. O‘tgan yilning iyul oyida viloyat IIB Tezkor boshqaruv markazida «Qalqon» platformasi ishga tushirilgan edi.

– Ushbu tizim orqali joriy yilning o‘tgan davri mobaynida 158 ta yo‘qolgan buyum topilib, egalariga qaytarildi, 10 nafar bedarak yo‘qolgan fuqaro topilgan, – deydi viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, Tezkor boshqaruv markazi boshlig‘i, podpolkovnik Bobur Barotov. – Bundan tashqari, 138 ta qidiruvdagi avtomashina aniqlandi, tezkor qidiruv e’lon qilingan 40 nafar shaxs qo‘lga olindi. Mazkur platformaga viloyatning shahar va tumanlarida o‘rnatilgan 4 mingdan ziyod kuzatuv kameralari integratsiya qilingan bo‘lib, ular orqali hududlarni kunning istalgan vaqtida nazorat qilish imkoniyati yaratilgan. Bu esa jamoat xavfsizligini ta’minlash, shubhali holatlarni erta aniqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni «issiq izida» ochish imkonini bermoqda.

Jizzax viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi «102» navbatchilik qismi xodimlari o‘z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarib, fuqarolarning tinchlik-osoyishtaligi va xavfsizligini ta’minlash yo‘lida kecha-yu kunduz xizmat olib bormoqda. Tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar va zamonaviy texnologiyalar esa aholiga yanada sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatishda qo‘l kelmoqda.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

ХАВФСИЗЛИК ВА МАСЪУЛИЯТ УЙҒУНЛИГИ

Конвой хизмати ходимлари гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланганларни хавфсиз тарзда кузатиб бориш, уларни суд мажлисларига етказиш ҳамда жазони ижро этиш муассасаларига олиб боришдек масъулиятли вазифани бажаради. Бу эса ходимлардан юқори даражадаги масъулият, тезкорлик ва юксак касбий тайёргарликни талаб этади.

Тошкент вилояти ИИББда Конвой хизмати фаолиятини ташкил этишга замонавий тарзда ёндашилмоқда. Хусусан, шахсий таркибнинг жисмоний ва психологик тайёргарлигини ошириш, махсус транспорт воситаларини янгилаш, хавфсизлик чораларини кучайтириш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда.

Вилоят ҳудудидаги судлар, тергов ҳибсхоналари ва жазони ижро этиш муассасалари ўртасида маҳкумлар ва айбланувчиларни ташиш жараёни аниқ режа асосида амалга оширилади. Ҳар бир ҳаракат хавфсизлик талабларидан келиб чиққан ҳолда мувофиқлаштирилади. Айниқса, ҳаракат серқатнов бўлган йўлларда конвой гуруҳларининг тезкор ва хавфсиз ҳаракатланиши муҳим масалалардан бири ҳисобланади.

Мазкур соҳавий хизмат ходимлари нафақат пухта жисмоний тайёргарликка, балки юксак маънавий фазилатларга ҳам эга бўлишлари лозим. Айрим ҳолатларда низоли вазиятлар, ҳатто қочишга уриниш ёки тажовузкор ҳаракатлар ҳам кузатилиши мумкин. Бундай пайтда ходимдан вазиятни қонун доирасида, босиқлик ва касбий маҳорат билан ҳал қилиш талаб этилади.

– Соҳа фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланиш кўлами ҳам босқичма-босқич кенгайиб бормоқда. Махсус автотранспорт воситалари кузатув камералари, замонавий алоқа воситалари ва навигация тизимлари билан жиҳозланган. Бу эса хизмат жараёнини доимий назорат қилиш, фавқулодда ҳолатларнинг олдини олиш ва хавфсизликни кучайтириш имконини бермоқда, – дейди Тошкент вилояти ИИББ ЖХХ ЖТСБ конвой гуруҳи командири, подполковник Бекзод Мирзақулов.





Инсон ҳуқуқларини таъминлаш ва ҳимоя қилиш масаласи ҳам доимий эътибор марказида турибди. Конвой жараёнида қонунга зид муносабат, тазйиқ ёки шафқатсиз муомалага мутлақо йўл қўйилмаслиги керак. Бу борада ходимларнинг ҳуқуқий саводхонлиги оширилиб, улар халқаро стандартлар асосида ўқитилмоқда.

Соҳа ходимлари ўзларининг асосий вазифаларини сидқидилдан бажариш билан бир қаторда жамоат хавфсизлиги ва тартибини таъминлашга ҳам муносиб ҳисса қўшишмоқда. Бу, айниқса, байрам тадбирлари, спорт мусобақалари ва оммавий йиғинлар чоғида кучайтирилган тартибда хизмат олиб бориш жараёнида янада яққол намоён бўлади.

Мутасаддиларнинг таъкидлашича, конвой хизмати самарадорлиги кўп жиҳатдан шахсий таркибнинг билим ва тажрибасига боғлиқ. Шу боис соҳада кадрлар тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоралари изчил давом эттирилмоқда. Замонавий таълим дастурлари, амалий машғулотлар ва психологик тренинглар ҳуқуқ тартибот посбонларининг касбий маҳоратини янада мустаҳкамлаш гарови бўлмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, вилоят ИИББда Конвой хизмати ҳуқуқ-тартибот ва жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим таянчларидан бирига айланган. Мазкур соҳа вакиллари замонавий техника, мустаҳкам интизом ва қонун устуворлиги тамойиллари асосида фаолият юритмоқда. Бу эса ҳудудда тинчлик-осойишталик ҳамда фуқаролар хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Аброр ПОЁНОВ,
катта мутахассис-мухбир,
катта сержант.

Тошкент вилояти.

Ўтиб бораётган йиллар силсиласида сочларга оқ оралаб, юзда ажинлар намоён бўлганда, ортга боқиб, босиб ўтилган умр йўлимизни сарҳисоб қиламиз. Нималарга улгурдик, ҳаётда қандай из қолдирдик? Агар Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, журналист Пўлат Худойберганов ҳаётига назар ташласак, кўз олдимизда бутун бошли фидойилик мактаби намоён бўлади.



БАРАКАЛИ ИЖОДКОР

Лавҳамиз қаҳрамони Жайҳун бўйларида – Амударё тумани Қиличбой қишлоғида оддий боғбон Жуман ота оиласида дунёга келган. Бу хонадонда китобга, маънавиятга меҳр бўлакча эди. Пўлат аканинг шеъриятга бўлган қизиқиши 6-7-синфларда ўқиб юрганида уйғонган. Ўшанда жонкуяр адабиёт ўқитувчиси Бобожон Уразметов улуғ шоир Ғафур Ғуломнинг «Сен етим эмассан» шеърини шу қадар юракка етиб борадиган даражада таъсирли оҳангда ўқиб берардики, бутун синф берилиб тингларди.

Кейинчалик билимга чанқоқ йигит Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтига ўқишга кирди. Олийгоҳни тамомлаб, шу даргоҳнинг Кимё-биология факультетида услубчи, ўқитувчи ва декан ўринбосари лавозимларида меҳнат қилди. Аммо қалбидаги ижодга бўлган қизиқиш уни тинч қўймасди. Институтнинг «Педагог» газетаси бош муҳаррири, устози Мамасоли Жумабоевдан соҳа сирларини ўрганди ва мақолалар, шеърлар ёза бошлади.

Мустақилликнинг илк йилларида Пўлат Худойберганов Ўзбекистон радиосига ишга таклиф этилди. Бу ерда таниқли ижодкорлар Анвар Абдувалиев, Мухторжон Муродов ва Зулфия Обидовадан касб маҳоратини ўрганди. Кўп йиллар давомида қишлоқ хўжалигига оид «Дала соҳиблари – сизлар учун» эшиттиришига муаллифлик қилди.

Радиода ишлаб юрганида таниқли болалар шоири Пўлат Мўмин билан учрашиб қолди. Мулоқот чоғида шоирнинг шеърларини маҳорат билан ўқиб берди. Бу самимий суҳбат Пўлат Мўминга манзур бўлиб, улар ўртасида устоз-шогирдлик ришталари боғланади. Бу учрашув ва олинган оқ фотиҳа бўлажак ижодкорнинг болалар шоири сифатида шаклланишида мустаҳкам пойдевор бўлади.

Пўлат Худойберганович кейинги тақдири ички ишлар органлари фаолиятини ёритиш билан чамбарчас боғланди. Лавҳамиз қаҳрамони соҳа масъуллари билан ҳамкорликда «Оқ йўл» ва «Йўлингиз бехатар бўлсин!» кўрсатув ҳамда эшиттиришларини ташкил этди. Шунингдек, «Ассалом, Ўзбекистон!» дастури орқали салкам йигирма йил давомида йўл-патруль хизмати инспекторларининг машаққатли

меҳнатини экранга олиб чиқди. Ўзбекистон халқ шоири, «Ассалом, Ўзбекистон!» кўрсатувининг ўша пайтдаги бош муҳаррири Иқбол Мирзонинг: «Пўлат оға съёмкага борса, эшикдан киргизишмаса, томни тешиб кириб бўлсаям лавҳа тайёрлаб келади», – деган эътирофи унинг касбига садоқатидан далолат. Кўрсатувлар тайёрлаш учун юртимиз бўйлаб кезган халқчил журналистнинг «Ибрат», «Таълим фидоийлари» каби кўрсатувлари, газета ва журналларда чоп этилган туркум мақолалари ҳамон мухлислар ёдида.



П.Худойберганов нафақат ўткир публицист, балки ўзбек болалар шеъриятининг кўзга кўринган намояндаларидан биридир. Унинг қаламига мансуб «Ватан дейман», «Муҳаббатсан», «Қадри баланд қадрдонларим», «Қиличбой – она қишлоғим» ва «Орзуларим бир олам» каби китоблари ёш китобхонларнинг севимли асарларига айланди. Яқиндагина ижодкорнинг яна бир – «Орамиздаги фидойилар» номли публицистик ва шеърий тўплами чоп этилди.

Шоир бугунги кунда ҳам Тошкент шаҳри Юнусобод тумани «Баркамол авлод» болалар марказида ва ҳудуддаги мактабларда ташкил этилган «Шеърият, адабиёт ва нотиқлик» тўгаракларида юзлаб ёш қалбларни маърифат зиёсига ошно қилиб келмоқда.

Пўлат аканинг ҳаётда ва ижодда эришган барча ютуқлари ортида унинг умр йўлдоши Муҳаббат опа туради. Опа узоқ йиллар Олмазор туманидаги заиф эшитувчи болалар махсус мактаб-интернатида сурдопедагог бўлиб меҳнат қилган. Ана шундай фидоий ота-онанинг тарбиясини олган фарзандлар ҳам бугун ҳаётда муносиб ўрнини топиб, халқ хизматига камарбаста бўлмоқдалар.

Катта ўғил – подполковник Баҳодир Худойберганов Олмазор тумани ИИОФМБ 5-сонли ИИБ бошлиғи ўринбосари. У эл-юрт осойишталигини таъминлаш йўлида фидойилик билан хизмат қилмоқда. Кичик ўғил – Тошкент шаҳар ИИББ Ахборот-мультимедиа маркази бошлиғининг ўринбосари, подполковник Қаҳрамон Худойберганов эгнига соҳа формасини кийиши билан бир қаторда, ота касбига ворис бўлган ўткир журналист. Қизлари – Азиза тадбиркор бўлса, Наргиза ҳамширалик қилиш билан бирга, психология йўналишида таҳсил олмоқда.

Пўлат Худойберганов ҳаёти давомида фақат яхшилик, маърифат ва меҳр уруғларини экди. Ўз вақтида у яратган кўрсатувлар, ёзган бадиий ва публицистик асарлари, дилбар шеърлари элимизга манзур бўлган. Мана шундай баракали ижод соҳиби бундан кейин ҳам халқимиз суйган янги-янги дурдоналар яратишига ишончимиз комил.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



КУЛОЛЛАР АВЛОДИДАН ЧИҚҚАН ОФИЦЕР

Фарғона вилоятининг Риштон туманида истиқомат қилувчи ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги майор Дилоромхон Назировани бутун водийда, ҳатто республикамизнинг турли ҳудудларида ҳам кўпчилик яхши танийди. У Риштоннинг энг машҳур кулоллар сулоласи бўлган Назировлар оиласида камолга етган. Укалари Алишер ва Бахтиёр Назировлар бугун юртимизнинг энг таниқли уста-кулолларидан саналади. Назировлар ясаган кулолчилик намуналари дунё бозорлари ва музейларини забт этган.

Лавҳамиз қаҳрамони ҳунармандлар оиласида улғайган бўлса-да, ички ишлар органларида 30 йилдан зиёд вақт давомида эркаклар билан елкама-елка туриб хизмат қилди. Хизмат фаолиятининг асосий қисми Риштон тумани ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлинмаси билан чамбарчас боғлиқ. Ана шу жамоада оддий паспортчи ходимдан бўлим бошлиғигача бўлган масъулиятли ва шарафли йўлни босиб ўтди.

— Кечагидек ёдимда, мактабни битирган йилим туман ИИБ раҳбарлари менга паспорт бўлинмасига паспортчи вазифасида ишлашни таклиф этишганди, — дея эслайди у. — Чунки ҳуснихатим жуда чиройли эди. Ўша пайтларда ҳужжатлар қўлда ёзилганлиги учун ходимларни ишга олишда ҳуснихатга алоҳида эътибор қаратилган. Ана шу даргоҳда 30 йилдан зиёд хизмат қи-



либ, ҳурмат-эҳтиром билан пенсияга чиқдим. Тўплаган тажрибамни эса бугунгача шогирдларимга баҳоли қудрат ўргатиб келяпман.

Дилоромхон Назирова пенсияга чиққанидан сўнг ҳам халқ хизматидан тўхтагани йўқ. Ўзи яшайдиган «Мискин» маҳалласига 10 йилга яқин раислик қилди. Ҳозиргача вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзоси сифатида уч авлод учрашувларида ва турли маънавий-маърифий тадбирларда фаол иштирок этиб, ёш ходимларни бурчга садоқат руҳида тарбиялашга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Қаҳрамонимизнинг эл-юрт тинчлиги, Ватан равнақи йўлидаги фидойилиги муносиб эътироф этилиб, 2006 йилда «Шуҳрат» медали, 2015 йилда эса «Фидокорона хизматлари учун» ордени билан тақдирланди.

Дилоромхон Назированинг 3 нафар фарзанди бугун жамиятимизнинг турли соҳаларида меҳнат қилиб, юрт ривожига муносиб ҳисса қўшишмоқда. 10 нафардан зиёд набира ва чеваралари эса севимли бувижонлари билан доимо фахрланишади.

Бу йил лавҳамиз қаҳрамони муборак 70 ёшни қарши олди. Таваллуд айёми куни уйи меҳмонлар билан гавжум бўлди. Фарзандлари, набиралари, маҳалла аҳли, ички ишлар органларида фаолият юритадиган шогирдлари совға-саломлар билан кириб келишди. Вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзолари эса бошқарма раҳбариятининг табригини топширдилар. Бундай эҳтиромдан Дилором опанинг боши кўкка етиб, Яратганга шукрона келтирди. Ўз тажрибаларини ёш авлодга ўргатиб келаётган жонкуяр ва фидойи устозга биз ҳам юксак эҳтиром билдириб: «Табаррук ёшингиз муборак бўлсин!» – деймиз.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

FALOKAT OYOQ OSTIDA(MI)?



Ko‘cha-ko‘yda ham, ish joyida ham insondan doimo hushyorlik, ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, mashina boshqarayotgan shaxsning mas’uliyati ikki karra zalvorli. Chunki u nafaqat o‘z hayoti, balki boshqa insonlar xavfsizligi uchun ham javobgar bo‘ladi. Yo‘llarda hushyorlikni yo‘qotmaslik, qoidalarga qat’iy amal qilish bugungi kunda eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

Afsuski, ayrim shaxslar ehtiyotsizligi yoki beparvoligi sababli yo‘l-transport hodisasi sodir etishadi. Ular bunday qilmishlari uchun muayyan muddatga ozodlikdan mahrum etiladilar. IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hududi 47-son manzil koloniyasida jazo muddatini o‘tayotganlarning aksariyati qasddan jinoyat sodir etmagan. Ular aynan ehtiyotsizligi tufayli og‘ir oqibatlarga olib kelgan yo‘l-transport hodisalariga sababchi bo‘lgan.

Mazkur muassasada mahkumlarning huquqlari, qonuniy manfaatlari va bandligi ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar ularning nafaqat jazo o‘tashi, balki to‘g‘ri yo‘lni topib, xatosini anglab, kasb-hunar o‘rganishi va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish imkonini ham beryapti.

Albatta, ular orasida haydovchilik malakasining yetarli emasligi yoki spirtli ichimlik ta’sirida yo‘l-transport hodisasi sodir etganlar ham bor. Ammo qanday bo‘lmasin, ko‘pchilikning umumiy fikri shuki, yo‘lga chiqqan haydovchi hech qachon yomon niyat bilan harakatlanmaydi. «Falokat oyoq ostida», deb bejiz aytishmaydi. Ayni paytda ana shu falokatga kimdir sababchi bo‘lib qolish mumkinligini ham unutmaslik kerak.

Muassasada olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlar hamda turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarga bag‘ishlanadi. Shu bilan birga, profilaktik suhbatlarda muassasada o‘rnatilgan ichki tartib-qoidalarga rioya etish, halol mehnat qilish, hunar o‘rganish zarurligi uqtiriladi hamda zararli odatlarning oqibatlari tushuntiriladi.

Ayniqsa, kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Keng va shinam kutubxonada 2000 dan ortiq turli mavzulardagi adabiyotlar mavjud. Kitob mutolaasi mahkumlarning dunyoqarashini kengaytirishga, kelajakka ishonch bilan qarashga yordam bermoqda.

Muassasada makaron mahsulotlari ishlab chiqarish sexi faoliyat yuritib turibdi. Unda besh nafar mahkum mehnat qilib, peshona teri bilan daromad topishmoqda. Ular ish haqidan oila a’zolariga moliyaviy yordam ko‘rsatish imkoniyatiga egalar.

— Men avtohalokat sodir etib, bir insonning hayotiga zomin bo‘lganman, — deydi Qamariddin To‘rayev. — O‘sha mash’um voqeani eslasam, hanuz yurak-bag‘rim o‘rtanadi. Hozir makaron sexida ishlayman. Bo‘sh vaqtimda kitob o‘qiyman. Barcha haydovchilarga aytadigan gapim: yo‘lda hech qachon hushyorlikni yo‘qotmang, spirtli ichimlik ichib aslo mashina boshqarmang.



Muassasadagi 2,5 sotix yer maydonida issiqxona tashkil etilgan. Bu yerda mahkumlar pomidor, bodring, piyoz kabi turli sabzavotlar yetishtirishmoqda.

— Issiqxonada ishlash avvaliga menga oson tuyulgandi, — deydi Sirojiddin Nurboboyev. — Lekin vaqt o‘tishi bilan bu yerdagi har bir jarayon qanchalik muhim ekanini tushundim. Ozodlikka chiqqanimdan keyin hovlimda issiqxona qurmoqchiman.

Tahlillarga ko‘ra, ishlab chiqarish orqali mahkumlar daromad topyapti, qo‘shimcha kasb-hunar o‘rganishmoqda. Bu esa ularning kelajakda oilasi bag‘riga qaytganidan keyin halol mehnat qilib, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Mutaxassislar fikricha, mahkumlarning mehnatga jalb etilishi ularning jamiyatga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ularda mas’uliyat, intizom va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Mazkur koloniyada amalga oshirilayotgan ishlar shuni ko‘rsatadiki, jazoni ijro etish muassasalari insonni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish, ularni madaniy-ma’rifiy tadbirlar, mehnat orqali qayta tarbiyalash vazifasini ham bajarmoqda. Mahkumlar o‘z xatolarini anglab, hayotga boshqacha nazar bilan qarashni o‘rganmoqdalar.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.

Azaldan tabiatni ulug‘lab, asrab-avaylagan xalqimiz. Ota-bobolarimizdan qolgan ajoyib udum: xonadonda chaqaloq dunyoga kelsa, unga atab bitta nihol qadashadi. Bola ulg‘aygani sari, nihol ham o‘sib boravergan. Vaqti kelib u ulkan daraxtga aylangan. Bu an’ana inson va tabiat o‘rtasidagi mehr, uzviy bog‘liqlik, hayotga ehtirom ramzi bo‘lib xizmat qilgan.

BIZ EKKAN NIHOLLAR:

O‘ZIMIZ UCHUN E’TIBOR VA MAS’ULIYAT SINOVI

Shu o‘rinda mashhur bir rivoyat ham yodimga tushdi. Bir kuni xalifa Horun ar-Rashid birovning bog‘i yonidan o‘tayotib, mevali ko‘chat o‘tqazayotgan cholni ko‘rib, uni savolga tutibdi:

– Bobo, ancha yoshga kirib qo‘yibsiz. Bu daraxtlarning hosilini yeya olasizmi-yo‘qmi, ko‘chat ekib nima qilasiz?

Oqsoqol unga shunday javob berdi:

– Bizdan oldin yashagan odamlar daraxt ekib ketishgan. Biz esa mevalarini yedik. Endi biz ekkanimizning hosilini bizdan keyingilar yeyishadi, shohim.

Horun ar-Rashidga bu cholning gapi yoqib ketdi va unga bir xaltacha tilla hadya qildi.

Chol :

– Mevasiga yetasizmi-yo‘qmi, degandingiz, shohim. Mana, hozirning o‘zida mevasiniyam yeyapmiz, – debdi.

Xalifaga bu gap ham yoqib ketdi-da, yana bir xaltachada tilla uzatdi. Chol ikki xaltachani qo‘lida tutib turarkan, tag‘in so‘z qotdi:

– Hazratim, hammaning daraxti yiliga bir marta hosil bersa, mening daraxtim yiliga ikki marta meva berarkan.

Xalifa navkarlariga:

— Bu qariyaning donoligiga tan bermay iloj yo‘q. Yana bir oz tursak, bor budimizdan ayrilamiz, — deya qah-qah urib kulgancha yo‘lida davom etdi.

Ushbu rivoyatda nafaqat bog‘bon cholning donoligi, balki daraxt ekish kelajakka qaratilgan eng muhum sarmoya ekanligi ham o‘z aksini topgan. Zero, ko‘chatlar unib-o‘sib, shirin-shakar mevalar beradi, havoni tozalab, karbonat angidridni yutadi va kislorod ajratib chiqaradi. Shu bilan birga, ular tuproqni eroziyadan muhofaza qiladi, suv resurslarining barqarorligini ta’minlaydi hamda biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi. Dorivor o‘simliklar dardlarimizga shifo bo‘ladi.

2025-yilning yurtimizda «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e’lon qilingani bejiz emasdi. Bu Yangi O‘zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylash, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda «yashil» taraqqiyot tamoyillarini keng joriy etishga qaratilayotgan yuksak e’tiborning yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi.

Ona sayyoramizning go‘zal tabiati, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlari kimni maftun etmaydi deysiz. Biroq taraqqiyot hayotni farovonlashtirish barobarida salbiy oqibatlarga ham olib kelyapti. Sanoatning jadal rivojlanishi, avtotransportlar sonining ortishi, qolaversa, ona tabiatni asrashga e’tiborimiz susayganini natijasida Yer yuzida iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, suv taqchilli-

gi, havo haroratining ko‘tarilib borishi kabi ko‘plab global muammolar yuzaga keldi.

Muammolar yetarlicha ekan, ularning samarali yechimi bormi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Albatta, bor. Buning uchun yashillikni asrab-avaylash va ekologik barqarorlikni ta’minlash zarur. Ana shu maqsadda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yildan yurtimizda «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirib kelinmoqda. Bu yashab turgan mahallamiz, shahrimiz va butun yurtimizni ko‘rkamlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, tabiatni asrash va kelajak avlod uchun sog‘lom ekologik muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Biroq bu borada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadbirlar ba’zan oxirigacha yetkazilmayapti. Ayrim hududlarda ko‘chatlar faqat hisobot uchun, nomigagina ekilyapti. Keyin esa ularni parvarish qilishga e’tibor berilmayapti. Bu ishga mutasaddilarning e’tiborsizligi hamda mas’uliyatsizligi tufayli «yashil maydon»lar qarovsiz qolib ketmoqda. Natijada qanchadan-qancha ko‘chatlar o‘z vaqtida sug‘orilmay, parvarish qilinmay, qurib qolmoqda. Dono xalqimiz: «Gar qarasang, unib- o‘sib bog‘ bo‘ladi. Qaramasang yurak-bag‘ring dog‘ bo‘ladi», deb bejiz aytmagan.

Aslida, ko‘chat ekish — ezgu ishning boshlanishi, xolos. Uning haqiqiy samarasi esa keyingi ishlar bilan belgilanadi. Chunki har bir nihol suvga, o‘g‘itga, parvarishga, e’tibor va mehrga muhtoj. Ayniqsa, ko‘chatlarni sug‘orish masalasi bugungi kunda yanada dolzarb. Suv resurslarini tejash maqsadida joriy etilayotgan cheklovlar ayrim holatlarda bu ko‘chatlarni sug‘orishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Holbuki, yangi ekilgan ko‘chatni, ayniqsa, yoz faslida muntazam sug‘orish uning yashab qolishi uchun asosiy omildir.

Shu bois, suvni tejash bilan nihollarni asrash o‘rtasida ziddiyat emas, balki uyg‘unlik bo‘lishi kerak. Chunki suvni tejash ham, ko‘chat ekish ham bir maqsadga — tabiatni asrashga xizmat qiladi. Axir, tabiatning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va havoda chang zarralarining ortib borishi ham «yashil olam»ning qisqarib ketishi, inson faoliyatidagi nomutanosibliklar oqibati emasmi? Biznigcha, tomchilatib sug‘orish, zamonaviy texnologiyalar va oqilona yondashuv bu borada eng to‘g‘ri yechim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiatni asrash va yashillikni ko‘paytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Dunyoning ko‘plab davlatlarda, jumladan, bizning yurtimizda ham dov-daraxtlar qonun yo‘li bilan muhofaza qilinib, ularni asrash va ko‘paytirish maqsadida maxsus tashkilot hamda jamg‘armalar faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida yerga qadalgan ko‘chatlarni parvarishlash mutasaddilarning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir.

Bugun biz, yuqorida ta’kidlangan qator ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqdamiz. Kelajakda bundan ham og‘ir oqibatlar yuzaga kelmasligi uchun ko‘chat ekish ishlarini kengaytirish, ularning parvarishiga alohida e’tibor qaratish har birimizning burchimizdir. Buni kampaniyabozlikka emas, balki ezgu an’anaga aylantirish orqali kelajak avlod uchun mustahkam «yashil qalqon» yarata olamiz. Biz ekkan nihollarni mehr bilan parvarish qilsakkina, ular ulkan daraxtlarga aylana oladi.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.



«XORIJDA ISH BOR»

YOXUD ERKINLIKKA QO‘YILGAN TUZOQ

ZAMONAVIY QULLIK

Globallashuv jarayonlari shiddat bilan ilgarilab borayotgan makonda «odam savdosi» degan illat hamon o‘zining shakl-u shamoyilini o‘zgartirib, jamiyat tanasini kemirayotgani ma’naviy fojiadir.

Erkinlik insonga tug‘ilganida beriladigan, hech kim tortib olishga haqqi bo‘lmagan ne‘mat hisoblanadi. Ammo nafsi hakalak otgan, vijdonini jig‘ildonga almashgan kimsalar uchun odam daromad keltiruvchi yoki ekspluatatsiya vositasidir. O‘zbekistonda bu illatga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani bejiz emas. Zero, inson qadri ulug‘lanmagan yurtda hech qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy yuksalish bo‘lishi mumkin emas.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonuni ushbu jinoyatchilarning yo‘liga to‘siq bo‘luvchi qudratli kuchdir. Biroq qonunlar qanchalik mukammal bo‘lmasin, ularni hayotga tatbiq etish, jinoyat zanjirlarini uzish va odamlar qalbida ogohlik tuyg‘usini uyg‘otish tinimsiz mehnatni talab etidigan jarayondir.

RAQAMLAR TILGA KIRGANDA

Namangan viloyati hududiy komissiyasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan raqamlarga diqqatingizni qaratamiz. Joriy yilning dastlabki to‘rt oyi yakuniga ko‘ra, odam savdosi yo‘nalishida fuqarolardan 23 ta ariza va shikoyat kelib tushgan. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, deyarli ikki barobarga ortgan. Buni mazkur jinoyat turining keskin ko‘payib ketgani sifatida emas, balki jamiyatning va oddiy odamlarning uyg‘onishi sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Fuqa-

rolar endi o‘z haq-huquqlarini taniy boshladi, qo‘rquv va andisha devorlarini buzib, davlatga qonun ustuvorligi ta’minlanishini so‘rab murojaat qilmoqda.

Shu to‘rt oy ichida viloyat hududida odam savdosi bilan bog‘liq oltita jinoiy holat aniqlandi. Davlatobod tumanida ikkita, Kosonsoy, Namangan, Pop va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida bittadan holat qayd etilgan. Bu esa mazkur jinoyat zanjiri faqat bitta markaz bilan cheklanib qolmaganini, balki chekka-chekka hududlarga ham o‘z ildizlarini ota boshlaganini ko‘rsatadi.

Shahvoniy maqsadlarda ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq to‘rtta holat aniqlangan. Bu ayolning qadr-qimmatini toptash, uni tijorat vositasiga aylantirish istagi hamon kuchliligidan dalolat beradi. Shuningdek, insonning eng muqaddas tuyg‘ularidan bo‘lmish onalik va bolaga bo‘lgan munosabatni pul bilan o‘lchashga urinish, ya’ni chaqaloq savdosi bo‘yicha bitta holat qayd qilindi. Mehnat ekspluatatsiyasi bo‘yicha ham bitta holat fosh etildi.

Ushbu jinoyatlar oqibatida olti nafar fuqaro rasman jabrlanuvchi deb topildi. Ularni tuzoqqa tushirgan, hayoti va sog‘lig‘i ustidan hukmronlik qilmoqchi bo‘lgan ayblanuvchilar soni esa o‘n nafarni tashkil etdi.

«SAROB» YOKI SALIMANI SOTISHOLMADI

Bahorning kishiga xush yoqadigan ilk kunlari edi. Ammo Davlatobod tumanining chekka bir mahallasida yashovchi 25 yoshli Salima uchun bu kunlar hech qanday quvonch keltirmasdi. U turmushidan ajrashgan, bag‘rida bir nafar voyaga yetmagan farzandi bor. Doimiy ishi yo‘qligi sababli «kunbay» ishlab topgan puli ro‘zg‘or va bolaning kam-ko‘stiga zo‘rg‘a yetardi. Chorasizlik, kelajakka bo‘lgan ishonchsizlik va har kungi moddiy yetishmovchilik uni ruhan toliqtirgan edi.

Aynan mana shunday vaziyatlarda inson atrofidagi najotkor qiyofasidagi kimsalarga oson ishonadi. Salimaning mahalladoshi bo‘lgan Nargiza hamda Maftuna uning hayotidagi mana shu zaiflikni juda yaxshi payqashdi. Ular Salimaning yoshligi, chiroyi va eng muhimi pulsizlikdan qiynalayotganini ko‘rib, o‘zlarining sherigi Mahbubaxon bilan jinoiy til biriktirishdi.

Reja esa allaqachon uzoq xorijda, ya’ni Hindistonda yashovchi Gulshoda ismli ayol tomonidan ishlab chiqilgan edi. Gulshoda asli o‘zbekistonlik bo‘lib, Hindiston fuqaroligini olgan va u yerda ayollarni shahvoniy maqsadlarda ekspluatatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi yirik jinoiy tarmoq yaratgan edi.

Kunlarning birida Nargiza Salimani qahvaxonaga taklif qildi. Suhbat asnosida unga: «Sizdek ko‘hlik ayol xor bo‘lmasligi kerak. Hindistonda tanishlarim bor. Ular orqali sizga katta mehmonxonada yoki restoranda yengil ish topib beraman. Oyiga mo‘maygina pul topasiz», dedi. Shunda Salimaning ko‘zlari oldida birdan porloq kelajak, farzandining baxtli hayoti gavdalandi.

Joriy yilning 26-aprel kuni safar tayyorgarligi yakunlandi. Salimaga Toshkent xalqaro aeroportidan Dehliga chipta olib berildi. Jinoiy guruh a’zolari – Mo‘tabar, Mahbuba, Muazzam va Nargiza Salimani kuzatib qo‘yish, aniqrog‘i, u belgilangan joyga yetib borguncha ko‘zdan qochirmaslik uchun birga yo‘lga chiqishdi.

Ular Pop tumani hududidan o‘tayotgan edilar. Biroq huquq-tartibot organlari vakillari o‘zlarining iziga tushganini yetti uxlab tushlarida ham ko‘rishmagandi. Ni-

hoyat DXX Namangan viloyati boshqarmasi va viloyat IIB xodimlari tomonidan o‘tkazilayotgan tezkor tadbir o‘z natijasini berdi. Pop tumanidagi nazorat maskanida mashina to‘xtatildi. Tezkor xodimlar xolislar ishtirokida jinoiy guruh a’zolarini daliliy ashyolar bilan qo‘lga olishdi.

Salima o‘sha daqiqada qo‘rquvdan titrab ketdi va dastlab nima bo‘layotganini tushunmadi. Unga agar Popda to‘xtatib qolishmaganida, bir necha kundan keyin Hindistondagi fohishaxonalardan birida boshiga qanday kunlar tushishi mumkinligi tushuntirilganda, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. U o‘zini zamonaviy qullikdan qutqarib qolgan insonlarga qayta-qayta minnatdorlik bildirdi. Mazkur holat yuzasidan Pop tumani IIB tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

QARZDOR EMAS, QURBON EDI

Mehnat qulligi erkaklarning ham irodasini sindirishi mumkin. Namanganlik 36 yoshli Sardorning boshidan kechirganlari bunga misol bo‘la oladi.

U oilali, ikki farzandning otasi edi. 2024-yilning yanvar oyida Namangan shahrida yashovchi, avvaldan tanishi bo‘lgan Ikromjon bilan uchrashib qoldi. Ikromjon o‘zini katta tadbirkordek tutar, ostida so‘nggi rusumdagi qimmatbaho mashinasi bor edi. U Sardorning yelkasiga qoqib, mavsumiy ishchi bo‘lib yurmasdan, Qozog‘istonning Chimkent shahridagi katta qurilish obyektida ishlashni taklif qildi. Maoshini vaqtida olishga va’da berdi.

Sardor bu taklifga rozi bo‘ldi. Lekin Chimkentga yetib borishlari bilan Ikromjonning basharasidagi niqob sidirilib tushdi. Birinchi kuniyoq Sardorning xorijga chiqish pasportini ro‘yxatdan o‘tkazish bahonasida olib qo‘yishdi va qaytib berishmadi. Shu tariqa Sardor uchun og‘ir sinovlar boshlandi. Uni bir chekkadagi qurilish obyektiga qamab qo‘yishdi va ertalabdan kechgacha og‘ir jismoniy mehnat qilishga majburlashdi. Maosh haqida gap ham bo‘lishi mumkin emasdi. Sardor mehnat haqini talab qilganda esa Ikromjon va ushbu jinoiy guruhning boshqa a’zolari tomonidan ayovsiz kaltaklandi. Kaltaklar zarbidan qovurg‘alari shikastlangan Sardorga tibbiy yordam ko‘rsatmay, shu holida ham ishlashga majbur qilishdi.

Jinoyatchilar Sardorni qonga belanib yotgan, kaltakdan a’zoi badani momataloq bo‘lgan holda videotasvirga olishdi. So‘ng unga agar kameraga qarab, Ikromjondan qarzi borligini va hech qanday da’vosi yo‘qligini aytmasa, uni shu yerda o‘ldirib, ko‘mib yuborishlarini aytib tahdid qilishdi. Chorasizlikdan irodasi singan Sardor ular aytgan so‘zlarni takrorlashga majbur bo‘ldi.

Salkam ikki yil davomida ish haqini olmasdan, quldek ishlatilgan Sardorning uyiga qanday qochib kelgani alohida bir hikoyadir. Biroq azoblar Namanganda ham tugamadi. Ikromjon o‘sha videotasvirlarni qo‘lida bayroq qilib, Sardorning ortidan keldi. Agar unga 6000 AQSH dollari bermasa, bu videolarini internetda, mahallasi va qarindoshlari orasida tarqatib, sharmanda qilishini, yana Qozog‘istonga olib chiqib ketishini aytib, tovlamachilik qila boshladi.

Bu safar Sardorning sabr kosasi to‘ldi. U yillar davomida qalbini ezib kelgan qo‘rquvni yengib, viloyat IIBga ariza bilan murojaat qildi. Joriy yilning 21-mart kuni Davlatobod tumani hududida tezkor tadbir o‘tkazildi. Ushbu tadbir chog‘ida Ikromjon Sardordan talab qilayotgan 6000 AQSH dollarini olayotgan vaqtida tezkor xodimlar tomonidan uning qo‘llariga kis-

han solindi. Tovlamachining avtomashinasi ko‘zdan kechirilganda, yana to‘rt nafar fuqaroning xorijga chiqish pasporti, boshqa shaxslarga tegishli ko‘chmas mulk kadastr hujjatlari va oldi-sotdi shartnomalari aniqlandi.

Shundan so‘ng Ikromjonning uyida o‘tkazilgan tintuv davomida esa yana ikki nafar fuqaroning pasporti, qarzdorlik daftarlari va insonlarni bo‘ysundirish hamda qo‘rqitish uchun ishlatilgan elektroshoker topildi. Bu narsalar Ikromjonning nafaqat Sardorni, balki kamida yana olti-yetti nafar yurtdoshimizni o‘z tuzog‘iga ilintirgani, ularning uy-joyi, pasporti va taqdirini garovga olganini anglatardi. Ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi. Hozir davom etayotgan dastlabki tergov jarayonida hali ko‘plab tafsilotlar oydinlashishi aniq.

INSON QADRI ERKINLIKDAN BOSHLANADI

Yuqorida bayon etilgan ikki voqea va mavzu doirasidagi raqamlar jamiyatimiz a’zolari chuqur mushohada yuritib, tegishli xulosa chiqarishi uchun yetarli deb o‘ylaymiz. Endi odam savdosi jinoyati nega hamon uchrab turishi xususida to‘xtalsak.

Birinchidan, jabrlanuvchilarning deyarli barchasi hayotda qiyin vaziyatga tushib qolgan, yetarlicha huquqiy bilimga ega bo‘lmagan, xorijga ketishning qonuniy yo‘llarini bilmaydigan shaxslardir. Salimaning soddaligi va Sardorning chorasizligi ularni jinoyatchilarning oson o‘ljasiga aylantirdi.

Ikkinchidan, o‘z millatdoshini pul uchun xorijga sotayotgan kimsalarning vijdonsizligi va nafs bandasiga aylangani jamiyatimizda ma’naviy qadriyatlarga putur yetayotganini ko‘rsatib, bizni jiddiy tashvishga solishi lozim.

Uchinchidan, atrofdagilarning befarqligi ham ushbu illatning tarqalishiga zamin yaratmoqda. Chunki bir inson ikki yil davomida begona yurtda azoblanib yurganida, yaqinlari o‘z vaqtida bu haqda bong urmagani yoki shubhali tarzda pasport yig‘ayotgan shaxslar haqida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermagani achinarli holdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar odam savdosiga qarshi keskin va murosasiz kurashmoqda. Ammo faqatgina ularning sa’y-harakatlari orqali ushbu illatni ildizi bilan quritib bo‘lmaydi. Har bir mahalla, har bir oila ogoh bo‘lishi shart. Xorijga ishga ketayotgan fuqaro qonuniy mehnat shartnomasiga ega bo‘lishi va o‘z huquqlarini bilishi lozim. Eng muhimi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni esa hech qanday holatda, hech kimga garov tariqasida yoki ishonib berib bo‘lmaydi.

Inson – oliy xilqatdir. Uni sotish, sotib olish, jismoniy va ruhiy zo‘rlash ham Yaratganga, ham qonunga qarshi isyon. Namanganda fosh etilgan mazkur jinoyatlar bizni atrofga hushyorroq va teranroq qarashga, ozodligimiz hamda qadr-qimmatimizni har qanday va’dalardan ustun qo‘yishga undaydi. Haqiqat qanchalik achchiq bo‘lmasin, undan zarur saboq chiqarish darkor. Ogoh bo‘laylik, zero, erkinlik bebaho ne’matdir. Inson qadri esa erkinlikdan boshlanadi.


Jahongir TO‘XTASINOV,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

HIKOYA

SOYABON

Shoshib ishxonaga kirib, ikkinchi qavatga ko‘tarildim-u, xonamizning yarmini egallab turgan rang-barang soyabonlarga ko‘zim tushdi. Shunda o‘zimning soyabonimni taksida unutib qoldirganimni esladim. Uni yaqinda tug‘ilgan kunimda farzandlarim sovg‘a qilgan edi.



Yomg‘ir tegsa, yuzasida gulchalar paydo bo‘lardi. Axir, bolalarim tushlik uchun bergan pullarni jamlab, uni sotib olgan, oyijonim yomg‘irda shalabbo bo‘lmasin, deb hadya qilgan edi-ku. Afsus, parinshonxotirligim tufayli, kichkintoylarimning sovg‘asini taksida unutib qoldiribman. «Endi nima qilaman?» degan o‘y xayolimdan ketmasdi. Ishxonamdan chiqib, yomg‘irda qolishdan emas, bolalarim xafa bo‘lishadi, deya tashvishlanardim.

O‘ylab-o‘ylab chorasini topdim. Tushlik payti ishxonamiz atrofidagi do‘konlardan shunaqasini qidirib ko‘raman. Topolmasam, ishdan vaqtliroq chiqib bozorga yuguraman. Xullas, tushgacha xayolim soyabonimda bo‘ldi.

Shu payt hamkasbim Malika odamlarda vijdon tuyg‘usi kamayib ketganidan nolib gap ochib qoldi. Dam olish kuni bozorga borib, qaysidir rasta ustida hamyonini unutib qoldiribdi. O‘n daqiqa o‘tib, o‘sha rastaga qaytib boribdi. Ammo hamyonini topolmabdi.

– Odamlarda ham umuman insof qolmagan, – dedi u ranjib.

Qolganlar ham uning gaplariga qo‘shildi. Hamkasbim Inom aka esa boshqa bir voqea bilan mavzuni davom ettirdi. Men: «Unchalik emas. Odamlar orasida insoflilari ham ko‘p», – demoqchi bo‘ldim-u, lekin indamay qo‘ya qoldim. Soyabonim haqida ham og‘iz ochmadim. Negadir mo‘jiza yuz berib, uning topilishidan umidvor edim.

Tushlik vaqti bo‘lgach, tamaddi qilgani hamxonalarim bilan ishxonamizdan ko‘chaga chiqayotsam, bir amaki:

– Mana, mana shu qizim edi, – dedi to‘satdan qorovulga meni ko‘rsatib.

Qarasam, ertalab meni ishxonaga olib kelgan taksi haydovchisi jilmayib turardi. Qo‘lida esa farzandlarimning sovg‘asi – o‘sha qadrli soyabonim!

– Ataylab tushlikka chiqish paytingni mo‘ljallab keldim, qizim. Soyaboningni mashinamning orqa o‘rindig‘ida unutib qoldiribsan-ku, – dedi u mehribonlik bilan.

Xuddi uzoq yillar ko‘rmagan qadrdonimni ko‘rib qolgandek quvonib ketdim. Unga qayta-qayta rahmat aytib, soyabonimni olib, ishxonamga qaytib kirdim. Zinalardan ko‘tarilar ekanman, ich-ichimdan sevinardim. Endi farzandlarim xafa bo‘lmaydi. Men uchun eng muhimi hamxonalarim bu dunyoda insofli odamlar ham borligiga ishonch hosil qilgani edi...

Xadicha O‘TAYEVA



BOLAJONLARNING SEVIMLI MASKANI

Qashqadaryo viloyati IIB tasarrufidagi «Yulduzcha» maktabgacha ta’lim tashkiloti bolajonlarning sevimli maskaniga aylangan. Boisi, bu yerda bolalarning iqtidorini rivojlantirish, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu maskanda tajribali tarbiyachilar bolajonlarning erkin fikrlashi, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida turli interaktiv mashg‘ulotlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, sahna ko‘rinishlari va sport musobaqalarini muntazam tashkil etib kelmoqda.

Muassasa jamoasining mehnati o‘z samarasini bermoqda. «Yulduzcha» MTT tarbiyachilari turli ko‘rik-tanlov va tadbirlarda faol ishtirok etib, o‘z iqtidorini namoyon qilib, munosib natijalarni qo‘lga kiritishmoqda. Ayniqsa, ular ijro etgan milliy va zamonaviy raqslar, qo‘shiqlar, shuningdek, ifodali o‘qigan she’rlar barchaga zavq-shavq bag‘ishlab, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



QALQON-ЩИТ 970 (1083)

